

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI
VAZIRLIGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish hamda mehnatini muhofaza qilish tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3913-son qarorini ijro etish, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga yuklangan vazifalar ijrosi samaradorligini oshirish, vazirlik faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, mehnat, aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi to‘g‘risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom [2-ilovaga](#) muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizom [3-ilovaga](#) muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalarining Davlat mehnat inspeksiyasining tuzilmalari [4](#), [4a](#) va [4b-ilovalarga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda Inspeksiya deb ataladi) mehnat, aholi bandligi, mehnat muhofazasi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan ularga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to‘sqinliksiz foydalanish, shuningdek, barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalanishdagi aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etish masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, ish beruvchilar bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart;

Inspeksiya xodimlari tomonidan qisqa muddatli tekshiruvlar, shu jumladan Inspeksiya xodimlarini davlat organlari tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlarga jalb qilish “Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini tekshirishlar monitoringi” idoraviy elektron axborot tizimida ro‘yxatga olinadigan tegishli mehnat organi rahbarining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi;

davlat organlariga Inspeksiya xodimlari zimmasiga ular vakolatiga kirmaydigan ishlarni bajarishni yuklash taqiqlanadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi:

ikki oy muddatda — “Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini tekshirishlar monitoringi” idoraviy elektron axborot tizimini ishlab chiqsin va joriy etsin, uni ishlab chiqishni, joriy etishni va texnik qo‘llab-quvvatlashni moliyalashtirish manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining mablag‘larini jalb qilishni nazarda tutsin;

2019-yil 1-aprelgacha bo‘lgan muddatda — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimiga kiradigan mehnat organlari va tashkilotlar, tugatilayotgan Davlat mehnat huquq inspeksiyasi hamda Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi bo‘yicha davlat inspeksiyasi rahbarlari va xodimlarini egallab turgan lavozimga mosligini

attestatsiyadan o'tkazsin hamda Inspeksiya va uning hududiy bo'linmalarini yuklangan vazifalarni yuksak va professional darajada bajara oladigan yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'rsin;

4. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziriga mehnat bozoridagi real vaziyatdan va ehtiyojdan kelib chiqib, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining ishga joylashtirish bo'yicha inspektorlarining shtatdagi soniga (ishlab chiqarish xodimlari), shuningdek, Inspeksiya tuzilmasiga xodimlarning tasdiqlangan cheklangan umumiy soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga Inspeksiyaning markaziy apparati va uning hududiy bo'linmalariga 15 ta avtotransport vositasini xarid qilish va ularni saqlab turush uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining tejalgan mablag'lari hisobidan limit ajratilsin.

6. Toshkent shahrining Sergeli tumani, Lutfikor ko'chasi, 33-uyda joylashgan Sergeli yengil sanoat va servis kasb-hunar kollejining bino va inshootlari tutash hududlari bilan birga O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarini joylashtirish uchun operativ boshqarish huquqi asosida o'tkazilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga berilayotgan Sergeli yengil sanoat va servis kasb-hunar kolleji 3-kurs talabalari 2019-yil 1-sentabrgacha o'qishni tugatishini hamda yaqin atrofda joylashgan va bir xil ta'lim yo'nalishlariga ega kasb-hunar kollejlari talabalari kontingentiga kiritilishini ta'minlasin;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi bilan birgalikda bir oy muddatda yuqorida ko'rsatilgan bino va inshootlarning tutash hududlar bilan birga o'tkazilishini, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi esa ulardan maqsadli foydalanish asosida qabul qilib olinishini ta'minlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining vazirlik ixtiyorida bo'lgan 2-Toshkent yuridik kollejini Toshkent xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kolleji etib qayta ixtisoslashtirish, 2020-yil 1-sentabrgacha tahsil oluvchilar kontingentini saqlash va ularga o'qishni tugatgach, Toshkent xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kolleji diplomlarini berish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'lari Toshkent xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kolleji faoliyatini moliyalashtirish manbai etib belgilansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga:

ikki oy muddatda — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda Toshkent xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kollejida yangi yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha yangi o'quv dasturlari, shuningdek, kollej talabalari bilimini baholash, ularning yakuniy davlat attestatsiyasini va amaliyotini o'tkazish to'g'risidagi nizom ishlab chiqilishini ta'minlasin;

mehnat organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan idoraviy tashkilotlar, shu jumladan budjetdan tashqari jamg'armalar xodimlariga mehnat organlari xodimlari uchun nazarda tutilgan tartibda har oylik ustamalar belgilash uchun ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash huquqi berilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini muvofiqlashtirish va uslubiy ta'minlash bo'yicha vakolatli organ etib belgilansin.

11. Belgilab qo'yilsinki:

hududiy bandlik boshqarmalari va tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga ishga qabul qilishga ko'rsatilgan nomzodlar majburiy tartibda bir haftalik kurslardan, mehnat organlari xodimlari esa muntazam ravishda Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarida har uch yilda kamida bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tadilar;

Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarining hamda Toshkent xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kollejining xodimlari va o'qituvchilari mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha respublika oliy ta'lim muassasalarining xodimlariga va o'qituvchilariga tenglashtiriladi;

Respublika bandlikka ko'maklashish va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazining xodimlari mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy va rahbar xodimlariga tenglashtiriladi.

12. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom [5-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

13. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ikki oy muddatda:

a) Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarining faoliyatini tanqidiy qayta ko'rib chiqsin, shu jumladan:

mehnat organlari o'z faoliyatida duch keladigan aniq muammolar yechimini izlashni muhokama qilishga qaratilgan "case-study", "team-work presentation", ishbilarmonlar o'yinlari usullaridan foydalangan holda progressiv interaktiv o'qitish usullarini keng joriy etishni nazarda tutuvchi yangilangan o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqish;

Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarini malakali xodimlar va o'qituvchilar bilan to'ldirish;

Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslari tuzilmasini va uning to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish hamda tasdiqlash masalalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqsin;

b) "Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini tekshirishlar monitoringi" elektron axborot tizimi faoliyati tartibini ishlab chiqsin, tasdiqlasin va amaliyotga joriy etsin.

v) mehnat bozori tadqiqotlari, mehnatni muhofaza qilish va mehnat huquqlarini himoya qilish, ish bilan ta'minlash, kadrlar tayyorlash va kasbiy malakani baholash, mehnat standartlari va mehnatga haq to'lash masalalari to'g'risidagi kontentni o'z ichiga olgan "Mehnat iqtisodiyoti" yangi ilmiy-ommabop jurnalini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda umumta'lim maktablarining 11-sinfiga o'qitiladigan "Kasbga o'qitish" fanining o'quv dasturiga "Mehnat bozorida raqobatbardoshlikning shaxsiy ko'nikmalarini rivojlantirish" mavzusini kiritsin, unda umumiy o'rta ta'lim bazaviy o'quv rejasi doirasida kasbga yo'naltirish, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari asoslarini, mehnat bozorida mos vakansiyalar izlash ko'nikmalari, ishga kirish uchun rezyumeni tayyorlash va ish beruvchi bilan suhbatdan o'tish, ishga kirish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish o'rgatilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [6-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

16. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [7-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

17. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari — Moliya vaziri J.A. Qo'chqorov hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri Sh.D. Kudbiyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 31-dekabr,
1066-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son [qaroriga](#)
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (keyingi o‘rinlarda Vazirlik deb ataladi) aholi bandligi, mehnat migratsiyasi va mehnat munosabatlari sohasida yagona siyosat olib boruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi hamda o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi.

2. Vazirlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

3. Vazirlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

4. Vazirlik, uning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan hududiy va idora bo‘ysunuvidagi bo‘linmalar yuridik shaxslar hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga va blankalarga, o‘zining mustaqil balansiga, shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan xorijiy hisobvaraqlariga ega.

5. Vazirlikning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, qisqartirilgani — Mehnat vazirligi;

b) ingliz tilida:

to‘liq nomi — Ministry of Employment and Labour Relations of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgani — Ministry of Labour;

v) rus tilida:

to‘liq nomi — Ministerstvo zanyatosti i trudovix otnosheniy Respubliki Uzbekistan, qisqartirilgani — Ministerstvo truda ili Mintruda.

6. Vazirlikning joylashgan joyi (pochta manzili): 100031, Toshkent shahri, Mirobod ko‘chasi, 15.

2-bob. Vazirlik tizimi

Oldingi tahrirga qarang.

7. Quyidagilar Vazirlik tizimiga kiradi:

Vazirlikning markaziy apparati;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari;

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, unga bo‘ysunadigan fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha hududiy filiallar, xorijga ketayotgan fuqarolarni jo‘nab ketishdan oldin moslashtirish markazlari va Agentlikning xorijdagi vakolatxonalari;

Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi;

Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslari;

Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish markazi;

Ishsiz va band bo‘lmagan aholini kasb-hunarga o‘qitish hududiy markazlari;

Malakani baholash markazlari;

“Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi” MChJ;

Toshkent xodimlarni boshqarish va mehnatni muhofaza qilish kolleji;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi;

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi;

Band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi “Ishga marhamat” monomarkazlari;

Chet ellarga ketayotgan fuqarolarni oldindan ko‘niktirish markazlari;

Oldindan ko‘niktirish va kasbga tayyorlash markazlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari Vazirlikka va tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tumanlar (shaharlar) hokimliklariga bo‘ysunadi va hisob beradi.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.04.2021-y., 09/21/183/0283-son)

8. Vazirlik o‘z vazifalari va funksiyalarini bajarishda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

3-bob. Vazirlikning, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalarining, tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarining vazifalari va funksiyalari

1-§. Vazirlikning vazifalari va funksiyalari

9. Quyidagilar Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

mamlakat mehnat bozorining amaldagi holatini puxta tahlil qilish asosida hududlar bo‘yicha aholi bandligini ta‘minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish hamda samarali muvofiqlashtirish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish uchun davlat buyurtmasini va aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ishga joylashtirish uchun kvotalar belgilash orqali aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mehnat organlariga murojaat qilgan ishsizlarning ishga joylashtirilishini ta‘minlash, aholini jamoat ishlarida ishtirok etishga jalb qilish, birinchi navbatda, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yo‘l va uy-joy-kommunal infratuzilma obyektlarini qurish, ta‘mirlash va rekonstruksiya qilish, shahar va tumanlarni obod qilish, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlarini tashkil etish orqali jalb qilish;

ishga muhtoj shaxslarni, ayniqsa band bo‘lmagan yoshlarni iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining real ehtiyojlaridan kelib chiqib, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish;

boshqa vazirliklar, idoralar va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda umumta‘lim maktablari, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini egallagan mutaxassisliklariga muvofiq ishga joylashtirish choralari ko‘rish;

mehnat bozorini tartibga solish, bandlik, mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish, kasb va mehnat standartlari, gender bo‘yicha tenglikka rioya etishni ta‘minlash, band bo‘lmagan aholini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida bozor shart-sharoitlariga mos keladigan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek ular yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

ishga joylashtirish jarayoniga ilg‘or axborot texnologiyalarini faol jalb qilish, shu jumladan “Yagona mehnat milliy tizimi” dasturiy kompleksini va vakansiyalar Milliy bazasini yaratish hamda muntazam rivojlantirish;

bandlikka ko‘maklashish bo‘yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilma va raqobat muhitini yaratish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta‘lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoatchilikning aholi bandligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha hamkorligining samarali mexanizmlarini shakllantirish;

mehnat va bandlik sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishning nazorat qilinishini ta‘minlash, mehnat sharoitlari ekspertizasini amalga oshirish, mehnat munosabatlarini, mehnatni moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga doir aniq chora-tadbirlar ko‘rish;

mehnatni normalashtirish va unga haq to‘lash, mehnat standartlarini joriy etish va mehnat munosabatlarini takomillashtirish;

mehnat, bandlik, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash;

mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan aholi va ish beruvchilar o'rtasida keng axborot-tushuntirish ishlarini o'tkazish;

kam ta'minlangan oilalarga o'z vaqtida nafaqa to'lash va moddiy yordam berish yuzasidan monitoring olib borish, ularni ish bilan ta'minlashda ko'maklashish va mehnatga yaroqli oila a'zolarining xususiy tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirish orqali oilalarni kam ta'minlanganlikdan chiqarish bo'yicha yakka tartibdagi dasturlar ishlab chiqish;

tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uslubiy ta'minlash;

Oldingi tahrirga qarang.

texnikum, kollej yoki oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirmagan hamda kasb egallash istagidagi yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning Vazirlik tizimidagi "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari va maskanlarida kasb-hunarga o'qitish choralari ko'rish, shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan shakllantirilgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ro'yxati asosida ularning yirik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida har yili amaliyot o'tashini tashkil etish;

Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning bandligi bo'yicha doimiy monitoring olib borish;

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi 656-sonli qaroriga asosan o'n beshinchi va o'n oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.10.2021-y., 09/21/656/0996-son)

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirishda, ularni vataniga qaytarishda, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish vaqtida huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, shuningdek xorijiy ish kuchini jalb qilishga ruxsatnomalar va O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun xorijiy fuqarolarga tasdiqnomalar berish.

10. Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) aholi bandligini ta'minlashga doir maqsadli kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, yangi ish o'rinlari tashkil etish uchun davlat buyurtmasini va aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ishga joylashtirish uchun kvotalar belgilash masalalari bo'yicha:

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda jamiyatda amalga oshiriladigan islohotlarning maqsadlari va ustuvorliklaridan kelib chiqib, zamonaviy bozor mexanizmlari va vositalari asosida aholi bandligini va mehnat bozori barqaror rivojlanishini ta'minlashga doir strategiyani ishlab chiqishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ilmiy-tadqiqot institutlari ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

(10-band 1-kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda respublika va hududlarni demografik va iqtisodiy rivojlantirish prognozlaridan kelib chiqib, mehnat resurslari balanslarining asoslantirilgan prognoz parametrlarini, shuningdek, aholi bandligini ta'minlashga doir samarali kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

(10-band 1-kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

ishsizlar va ishga joylashishga muhtoj aholi hisobga olinishini tashkil etadi;

Oldingi tahrirga qarang.

manfaatdor davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan, tomorqa va dehqon xo'jaliklarida mehnat yoki

fuqarolik-huquqiy shartnoma rasmiylashtirmay chorvachilik, o'simlikshunoslik, parrandachilik, baliqchilik hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida boshqa turdagi qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni hisobga olish va tartibga solish choralari ko'radi fuqarolar hisobga olinishini tashkil etadi;

(10-band 1-kichik bandining beshinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-iyundagi 391-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.06.2021-y., 09/21/391/0590-son)

respublika va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mehnat resurslari soni va tarkibini tahlil qiladi, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan birgalikda yoshlar va band bo'lmagan aholi qaysi kasbni ma'qul ko'rishini va mehnat yo'nalishini aniqlash uchun sotsiologik tadqiqotlar o'tkazadi;

mehnat bozorida teng shartlar asosida raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun kvotalar (ish o'rinlarining eng kam sonini) belgilash bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda ularni ishga joylashtirish uchun ish beruvchilar tomonidan belgilangan miqdorda ish o'rinlari ajratilishini nazorat qiladi;

aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlariga mansub shaxslarni, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni zaxiralangan (kvotalangan) eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga bir martalik subsidiyalar taqdim etadi. Bunda ishga qabul qilingan mazkur toifadagi shaxslarning bandligini eng kam son (kvota) oshgan sanadan boshlab kamida 12 oy davomida saqlash sharti nazarda tutiladi;

tashkilotlarda eng kam ish o'rinlarini ajratish va ularga ish izlashda muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotgan va teng shartlar asosida mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan ayrim toifadagi shaxslarni qabul qilish masalalarini o'rganadi va tahlil qiladi, bunday shaxslarni ishga joylashtirish yuzasidan tashkilotlar uchun kvotalar belgilashga doir takliflar ishlab chiqadi;

aholi bandligi darajasini va tarkibini eng to'liq va xolis baholash, mehnat bozorida tarkibiy mavjud nomutanosibliklarni va ular kelib chiqqan sabablarni aniqlash, ishga joylashtirilishi zarur shaxslarni aniqlash maqsadida mehnat bozori rivojini tahlil qiladi va shu asosda tarmoqlar va hududlar bo'yicha yangi ish o'rinlari tashkil etish uchun yillik buyurtmalarni shakllantiradi;

ish kuchi va mehnat migratsiya jarayonlarini tahlil qiladi, tashqi mehnat migratsiyasi sabablari va omillarini aniqlaydi;

bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'planishini va tahlil qilinishini tashkil etadi, belgilangan tartibda taqdim etilayotgan vakansiyalar hisobini yuritadi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bo'sh ish o'rinlari haqidagi axborotni yetkazadi;

ish o'rinlari tashkil etish, aholini ishga joylashtirish jarayonlari va mehnat bozori holati ustidan muntazam monitoring o'tkazadi hamda ularni tahlil qiladi va shu asosda aholi bandligini oshirish bo'yicha samara chora-tadbirlar ishlab chiqadi;

ishsizlik va norasmiy bandlik darajasini va tarkibini tahlil qiladi, shu jumladan aholi bandligini tekshirish va aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali tahlil qiladi;

aholi, shu jumladan yoshlar, xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ishdan bo'shatilgan shaxslar va boshqa toifadagi shaxslar bandligi va ularni ishga joylashtirish bo'yicha axborotni shakllantirishni va kompleks tahlil qilishni tashkil etadi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda aholini ish bilan ta'minlash, bandlikning samarali shakllarini rivojlantirish hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning tizimli muvofiqlashtirib borilishini ta'minlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha, davlat buyurtmalarini, iqtisodiyotni tuzilmaviy isloh va diversifikatsiya qilish bo'yicha dasturlar, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlari bilan uzviy bog'lagan holda, qisqa muddatli (bir yil), o'rta muddatli (ikki, uch yil) va uzoq muddatli (uch yildan ortiq) davrlar uchun shakllantiradi;

(10-band 1-kichik bandining o'n sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ixtisoslashtirilgan bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazish, mehnat organlari tomonidan aholiga va ish beruvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va ulardan qulay foydalanishni ta'minlash orqali ishsizlarni, yoshlarni, birinchi navbatda, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini hamda aholining boshqa ijtimoiy zaif toifalarini ishga joylashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi bilan birgalikda, mehnat resurslari balansining prognoz parametrlari asosida, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha oliy va kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari uchun mutaxassislar tayyorlash yuzasidan davlat buyurtmalarini shakllantiradi;

(10-band 1-kichik bandining yigirmanchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

mehnat bozorida vaziyat tang bo'lgan mintaqalarda ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqishni muvofiqlashtiradi hamda manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda ularni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

iqtisodiyotni isloh qilish va tarkibiy qayta o'zgartirish davomida, shuningdek tashkilotlar qayta tashkil etilganda, bankrot bo'lishi va tugatilishi natijasida ishdan bo'shatiladigan xodimlarni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi;

bandlik va ish o'rinlarini tashkil etish hududiy dasturlarini ishlab chiqishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

manfaatdor vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, tijorat banklari bilan birgalikda o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarni, shu jumladan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining bitiruvchilarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

2) *mehnat organlariga murojaat qilgan ishsizlarning ishga joylashtirilishini ta'minlash, aholini jamoat ishlarida ishtirok etishga jalb qilish, birinchi navbatda, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yo'l va uy-joy-kommunal infratuzilma obyektlarini qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, shahar va tumanlarni obod qilish, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlarini tashkil etish orqali jalb qilish masalalari bo'yicha:*

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga ish izlab murojaat qilgan fuqarolarning ishga joylashtirilishini ta'minlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

(10-band 2-kichik bandining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-aprelda 195-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)

keyinchalik banklar tomonidan respublika tumanlari va shaharlarida yangi ish o'rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik va mini-loyihalarni amalga oshirish uchun mikrokreditlar ajratish maqsadida tijorat banklarida kredit liniyalari ochish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini taqdim etadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida yangi ish o'rinlari tashkil etishni rag'batlantiruvchi hududiy jamg'armalar, tadbirkorlik subyektlari bilan birgalikda, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida faoliyatni yangi ish o'rinlarini tashkil etishga va aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy yo'naltirilgan korxonalar tashkil etadi;

vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari faoliyatini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ishsizlarni va ularning oila a'zolarini moddiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni belgilangan tartibda tashkil etadi;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda jamoat ishlarining hajmlari va turlarini aniqlaydi hamda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi jamoat ishlarida, yo'l va uy-joy-kommunal infratuzilma obyektlarini qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilishda, shaharlar va tumanlarni obod qilishda, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlarida vaqtincha band bo'lmagan fuqarolarning ishtirokini tashkillashtiradi;

ishlamaydigan fuqarolarning jamoat ishlarida ishtirok etishini moliyalashtirishni belgilangan tartibda ta'minlaydi;

kasanachilikni, oilaviy tadbirkorlikni, hunarmandchilik faoliyatini va aholining o'zini o'zi ish bilan ta'minlashining boshqa shakllarini rag'batlantirish va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

kasanachilikdan foydalanishni kengaytirish, shu jumladan yirik korxonalar va fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish asosida kengaytirish masalalarida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga va boshqa tashkilotlarga ko'maklashadi;

nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlari yaratishda va ularni ishga joylashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlariga va boshqa tashkilotlarga ko'maklashadi;

nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanish, kasanachilik turlarini va nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlashning boshqa shakllarini rivojlantirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxonalar tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashadi;

Vazirlik huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasining, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligida, G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalarida ochiladigan g'aznachilik shaxsiy hisob raqamlaridagi, jamoat ishlari moliyalashtiriladigan mablag'lar jamlanishini ta'minlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi yangi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantirish hududiy jamg'armalari, tadbirkorlik subyektlari bilan birgalikda, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida band bo'lmagan shaxslarni jamoat ishlariga jalb qiluvchi korxonalar tashkil etadi, ularni keyinchalik doimiy ish o'rinlariga ishga joylashishga rag'batlantiradi;

Oldingi tahrirga qarang.

o'zini o'zi band qilgan shaxslarga rag'batlantiruvchi imtiyozlar berish choralarini ko'radi.

(10-band 2-kichik bandining o'n oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020-y., 09/20/806/1662-son)

3) *ishga muhtoj shaxslarni, ayniqsa band bo'lmagan yoshlarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni va ishsizlarni iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining real ehtiyojlaridan kelib chiqib, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish masalalari bo'yicha:*

malakani baholash Milliy tizimi faoliyatini tashkil etadi;

kasb malakalari va bilimlari bo'yicha Kengash tashkil etadi;

malakasi tasdiqlangan shaxslar Milliy reyestrini yuritadi;

kasb standartlari reyestrini yuritadi;

ishsiz fuqarolar va band bo'lmagan aholini kasbga o'qitish markazlari reyestrini yuritadi;

malakani baholash markazlari reyestrini yuritadi;

mehnatga layoqatli aholi, ayniqsa band bo'lmagan yoshlar kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar olishi uchun shart-sharoit yaratadi;

kasbiy standartlar va malaka talablarini ekspertizadan va davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

kasbga o'qitish markazlarida ishsiz fuqarolarni va band bo'lmagan aholini kasbga o'qitadi hamda malakani baholash markazlarida ularning malakasini baholaydi;

Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish markazini, ishsiz fuqarolar va band bo'lmagan aholini kasbga o'qitish markazlarini, malakani baholash markazlarini akkreditatsiyadan o'tkazadi;

ishsiz fuqarolar va band bo'lmagan aholini kasbga o'qitish markazlari, malakani baholash markazlaridagi o'qitish sifatini va baholash xolisligini nazorat qiladi;

mehnat organlari tizimida ishsizlar va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish mintaqaviy markazlarini tashkil etadi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ishsizlarni "Usta-shogird" usulida kasbga yakka tartibda qayta tayyorlashni tashkil etadi;

mehnat bozorida teng shartlar asosida raqobatlasha olmaydigan ishsiz fuqarolar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa toifalarini kasbga o'qitish va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini tashkil etishda ishtirok etadi;

ishsizlarni va mehnat bozorida teng sharoitlar asosida raqobatlasha olmaydigan shaxslarni kasbga o'qitishni tashkil etish masalalarida davlat-xususiy sheriklikning samarali mexanizmlarini shakllantirishda ko'maklashadi;

tayanch kasb-hunar kollejlari (kasbga qisqa muddatli o'qitish bo'yicha maxsus dasturlar orqali) va nodavlat ta'lim muassasalari negizida ishsizlar va band bo'lmagan aholining kasbga o'qitilishini va malakasi oshirilishini tashkil etadi;

mehnat bozoriga endi qadam qo'ygan, o'z biznesini tashkil etishni xohlayotgan yoshlarni rag'batlanirish va ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish va kiritish, ishga muhtoj band bo'lmagan aholi manfaatlarini ko'zlab kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash samarali tizimini yaratish, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan ushbu maqsadlarga ajratiladigan mablag'larni mutanosib tarzda oshirish;

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida ro'yxatga olingan ishsiz shaxslarni, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarga mansub xotin-qizlarni kasbga o'qitishga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan kasb-hunar ta'limi muassasalariga grantlar ajratish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi bilan birgalikda mehnat bozorida talab bo'lgan ega kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha ishsiz fuqarolar va band bo'lmagan aholini kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish qisqa muddatli kurslari o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari yo'llanmasi bo'yicha ishga qabul qilingan aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga mansub xodimlarni, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga o'qitish va ularning malakasini oshirish uchun sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun ish beruvchilarga bir martalik subsidiyalar beradi;

4) umumta'lim maktablari, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini egallagan mutaxassisliklariga muvofiq ishga joylashtirish choralarini ko'rish masalalari bo'yicha:

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini keyinchalik ishga joylashtirish uchun muayyan ish beruvchilarga biriktirib qo'yish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirishda ishtirok etadi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bitiruvchilarning bandligi ta'minlanishi yuzasidan tizimli monitoring olib boradi, ularni ishga joylashtirishga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni aniqlaydi va shu asosda bitiruvchilar bandligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgalikda umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari bandligini o'rganadi va o'rganish natijalari asosida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ishchi kadrlar va mutaxassislarni kasbga tayyorlash yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

bo'lajak mehnat faoliyati yo'nalishlarini tanlash hamda mehnat bozori va bandlikni rivojlantirish istiqbollari mutanosib kasbiy rejalarni shakllantirish masalalari bo'yicha yoshlar o'rtasida axborot ishlarini va kasbga yo'naltirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida talabalar egallashni xohlagan kasblarning asosiy xususiyatlarini va kasbga doir standartlarini tavsiflovchi multimediyaviy vositalar bilan jihozlangan xonalar tashkil etgan holda katta sinf o'quvchilari uchun kasbga o'qitish kurslarini o'tkazishni nazarda tutuvchi kasbga yo'naltirish dasturini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

5) mehnat bozorini tartibga solish, bandlik, mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish, kasb va mehnat standartlari, gender tenglikka rioya etishni ta'minlash, band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida bozor shart-sharoitlariga mos keladigan normativ-huquqiy hujjatlarni tezlikda ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek ular yuzasidan nazoratni amalga oshirish masalalari bo'yicha:

bandlikning yangi shakllarini joriy etishga va an'anaviy shakllarini kengaytirishga qaratilgan aholi bandligini kengaytirishning uslubiy va normativ-huquqiy asoslarini ishlab chiqadi;

tashqi mehnat migratsiyasini kompleks tahlil qilish, shu asosda tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirishda ko'maklashish;

mehnat munosabatlari va mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar, shuningdek fuqarolarning munosib va xavfsiz mehnat sharoitlariga bo'lgan huquqlarini ta'minlash bo'yicha takliflar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar va takliflar loyihalarini tayyorlashda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi;

manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgalikda mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini amalga oshirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

mehnat va bandlik masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani kompleks va tizimli tahlil qilish asosida aholi bandligi oshirishini ta'minlash uchun mavjud to'siq va g'ovlarni aniqlaydi hamda ularni yengib o'tish choralarini ishlab chiqadi;

majburiy mehnatning oldini olish va unga to'liq barham berish, shu jumladan aybdor mansabdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish bo'yicha manfaatdor vazirliklar, idoralar va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda choralar ko'rish;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda mehnat xavfsizligini ta'minlash va mehnat shart-sharoitlarini baholash uchun normativ baza yaratish maqsadida mehnatni muhofaza qilish masalalari yuzasidan texnik tartibga solish sohasida normativ hujjatlar ishlab chiqilishini, qayta ko'rilishini, kelishilishini va tasdiqlanishini tashkil etadi;

ijtimoiy sheriklik doirasida aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga hamda mehnat va bandlik masalalari bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amalda bajarilishi yuzasidan jamoat nazoratini takomillashtirishga ish beruvchilarni jalb etishga ko'maklashadi;

o'z vakolatlari doirasida yuridik va jismoniy shaxslarga mehnat va mehnat muhofazasi qonunchiligini qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

6) ishga joylashtirish jarayoniga ilg'or axborot texnologiyalarini faol jalb qilish, shu jumladan milliy mehnat tizimini va vakansiyalar Milliy bazasini yuritishni nazarda tutuvchi dasturiy majmuani yaratish hamda muntazam rivojlantirish masalalari bo'yicha:

mehnat va bandlik sohasida yagona texnik siyosat olib borish, tarmoqning axborot tizimlarini yaratishda yagona usullar va vositalarni qo'llash sohasida axborot tizimini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi;

vakansiyalar Milliy bazasini shakllantiradi va muntazam yangilab boradi hamda aholining interaktiv rejimda undan foydalanishini ta'minlaydi;

mehnat va aholini ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha axborot-ma'lumotnoma tizimlari va interaktiv xizmatlarning yanada rivojlanishini ta'minlaydi;

7) bandlikka ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilma va raqobat muhitini yaratish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari,

ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilikning aholini ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha hamkorligining samarali mexanizmlarini shakllantirish masalalari bo'yicha:

ishga joylashtirish va aholini ish bilan ta'minlash sohasida aholiga xizmat ko'rsatishda nodavlat sektorini rivojlantirishga va uning rolini kuchaytirishga qaratilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari negizida ishga joylashtirish sohasida "bir darcha" prinsipi bo'yicha kompleks xizmatlar ko'rsatuvchi zamonaviy ofislar tashkil etilishini ta'minlaydi;

kasbiy malakani tasdiqlash bo'yicha faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiyadan o'tkazadi;

O'zbekiston Respublikasi hududida ish izlayotgan shaxslarni, shu jumladan ularga uslubiy yordam ko'rsatish orqali ishga joylashtirishga va ularning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlariga pulli xizmatlar ko'rsatadi;

ishga joylashtirish va bandlikka ko'maklashish bo'yicha xizmatlar sohasiga axborot-kommunikatsiya xizmatlari keng joriy etilishini, fuqarolarga ishga joylashish jarayonlarini yengillashtiruvchi hamma uchun ochiq ma'lumotlar bazalari tashkil etilishini ta'minlaydi;

8) mehnat va bandlikni muhofaza qilish, mehnat sharoitlarini ekspertizadan o'tkazish, mehnat munosabatlarini, mehnatni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni ta'minlash masalalari bo'yicha:

xodimlar vakillik organlari a'zolari uchun qo'shimcha mehnat kafolatlari taqdim etishga, ish beruvchi tomonidan biror-bir tarzda ta'qib qilishdan himoya qilishga, intizomiy jazolar berishga, vakillik organlari tarkibiga saylangan va ishlab chiqarish ishlaridan ozod etilmagan xodimlar bilan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra mehnat shartnomasini tugatishga, shuningdek mahalliy mehnat organining oldindan roziligisiz o'z saylov vakolatlari tugagandan keyin ikki yil ichida vakillik organlari tarkibiga saylangan xodimlar bilan ish beruvchining tashabbusiga ko'ra mehnat munosabatlarini tugatishga rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qiladi;

xo'jalik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllaridan va turlaridan qat'i nazar tashkilotlar tomonidan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini, ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta qilinishini, shu jumladan noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar to'g'ri va o'z vaqtida berilishini davlat tomonidan nazorat qiladi;

xodimlarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash, biror-bir shaklda majburiy mehnatdan foydalanish ehtimollarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari amalga oshirilishini nazorat qiladi;

ayniqsa faol qishloq xo'jaligi ishlari vaqtida xodimlar huquqlari va manfaatlariga rioya etish bo'yicha davlat organlari, shu jumladan mahalliy davlat organlari faoliyatining tizimli monitoringini olib boradi;

monitoring yakunlari bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilgan holda ommaviy eshituvlarni, shu jumladan hududlarda o'tkazadi, eshituvlarda majburiy mehnatdan foydalanilgan har bir holat bunday hollarga yo'l qo'ymaslik maqsadida tanqidiy o'rganib chiqiladi;

korxonalar, muassasalar, ishlar va kasblar, lavozimlar hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya, qo'shimcha ta'til, qisqartirilgan ish kuni olish huquqini beruvchi ko'rsatkichlar ro'yxatlaridagi o'zgarishlar to'g'risida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari takliflari bo'yicha xulosalar beradi;

korxonalar, muassasalar, ishlar va kasblar, lavozimlar hamda imtiyozli shartlar asosida pensiya, qo'shimcha ta'til, qisqartirilgan ish kuni olish huquqini beruvchi ko'rsatkichlarning amaldagi ro'yxatlariga o'zgarishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

belgilangan mezonlarga muvofiq mehnatni muhofaza qilish holatini baholash natijalari bo'yicha tashkilotlarni kasbga oid xavf sinfiga kiritadi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanishi, shuningdek barcha transport turlaridan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy aloqa va axborot vositalaridan foydalanishi uchun shart-sharoit yaratishga doir qismiga rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qiladi;

mehnat, aholini ish bilan ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnat munosabatlari subyektlari huquqlari doimiy monitoringi va himoyasini amalga oshiradi;

mehnat to'g'risidagi bitimlar va lokal hujjatlarni, ish beruvchilarning mehnat munosabatlari masalalariga doir buyruqlarining qonun hujjatlariga muvofiqligini tizimli tahlil qiladi;

dehqon va fermer xo'jaliklarida band bo'lgan fuqarolarning, shuningdek tadbirkorlarning belgilangan mehnat kafolatlari ro'yobga chiqishini tashkil etadi;

jamoa shartnomalar va bitimlarda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini olib boradi;

fuqarolarning munosib mehnat shart-sharoitlariga doir huquqlarini ta'minlash va xodimlarning huquqiy himoyalanganligini kuchaytirish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

ish joylarining mehnat shart-sharoitlariga mosligini attestatsiyadan o'z vaqtida va sifatli o'tkazish yuzasidan davlat nazoratini amalga oshiradi, ish joylarining mehnat shart-sharoitlariga mosligini attestatsiyadan o'tkazishda uslubiy yordam beradi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash va ularga rioya qilish masalalari bo'yicha xodimlar va ish beruvchilarga, shu jumladan tadbirkorlik subyektlariga konsultativ va metodologik yordam beradi, ishlab chiqarish jarayonida jarohat olish va baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan amaliy ishlar olib boradi;

davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi va ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq ravishda uning sog'lig'iga yetkazilgan zararni maxsus tekshirishni o'tkazishni yoki o'zining vakillarini bunday tekshirishlarda qatnashishini hamda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni hisobga olishni belgilangan tartibda amalga oshiradi;

mehnat sharoitlari, ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish materiallarining davlat ekspertizasidan o'tkazilishini va tegishli xulosa berilishini ta'minlaydi;

Mehnat muhofazasi sohasidagi xizmatlar bozori professional qatnashchilarining Yagona reyestrini yuritadi va ularga tegishli tartibda ularning Mehnat muhofazasi sohasidagi xizmatlar bozori professional qatnashchilarining Yagona reyestriga kiritilganligi to'g'risida guvohnoma berishni amalga oshiradi;

ish o'rinlarini mehnat sharoitlarining va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha mutaxassisning malaka sertifikatini qonunchilikda belgilangan tartibda beradi va ularning reyestrini yuritadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyati yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda monitoring o'tkazadi;

tashkilotlarda mehnat muhofazasi holati bo'yicha monitoring yuritadi;

ishlab chiqarishda jarohatlanish sabablarini tahlil qiladi va davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga ularning oldini olish bo'yicha takliflar kiritadi;

ish beruvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasida xorijiy ishchi kuchidan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qiladi;

9) mehnat standartlarini joriy etish va mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni normalash va ishchi kasblarining hamda mutaxassislar va xizmatchilar lavozimlarining tarif-malaka tavsifnomalarini ishlab chiqish, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishchilarning asosiy kasblari bo'yicha ishchilarga malaka razryadlari berish masalalariga doir ishlarni muvofiqlashtiradi;

manfaatdor davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda eng muhim ijtimoiy-mehnat normalari va normativlarining ro'yxatini aniqlaydi va ularning ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi;

manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida mehnat va bandlik sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqadi, mehnat sohasida xodimlarning ijtimoiy himoyalanganligini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

xodimlarning mehnat sohasida ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

belgilangan tartibda asosiy xizmatchilar lavozimlari va ishchi kasblarining klassifikatorini, tarmoqlararo xaraktyerga ega bo'lgan alohida lavozimlar va kasblar bo'yicha kasbiy-malakaviy tasniflarni ishlab chiqadi;

Xizmatchilar lavozimlari va ishchi kasblarining tasdiqlangan Klassifikatorida ko'rsatilgan ishchi kasblari va xizmatchilar lavozimlari nomlarining ilgari normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarda ishlatilgan kasblar va lavozimlarga aynanligini va mutanosibligini belgilaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga va boshqa tashkilotlarga mehnatni normalash, zamonaviy mehnat standartlarini joriy etish, mehnatga haq to'lashni tashkil etish, ishlar, kasblar va lavozimlarning tarif-malaka ma'lumotnomalarida aks ettirilmagan lavozimlar va ishlarni tarif setkasining tegishli razryadlariga kiritish masalalarida amaliy va uslubiy yordam beradi;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi va manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda iqtisodiyotning alohida tarmoqlari va sektorlari uchun xodimlar sonining va mehnatga haq to'lash fondining minimal normativlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

(10-band 9-kichik bandining to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

manfaatdor davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan birgalikda davlat va xo'jalik boshqaruv organlari uchun lavozimlar kiritish va boshqaruv xodimlari, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar sonining normativlarini belgilash shartlarini ishlab chiqishda qatnashadi;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi va manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgalikda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarning eng kam miqdorini belgilash bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

(10-band 9-kichik bandining o'n birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

(10-band 9-kichik bandining o'n ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

mehnatni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini va mehnatga haq to'lashni tartibga solish usullarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

mehnatga haq to'lash tizimini, yagona tarif setkasini takomillashtirish, ish haqini tuman bo'yicha tartibga solish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

mehnat shartnomalarini, shu jumladan elektron shaklda (masofaviy) tuziladigan mehnat shartnomalarini tuzishning yangi shakllarini ishlab chiqadi va joriy etadi;

ish vaqtini yarim yillik, choraklar va oylarga bo'lib chiqqan holda kalendar yilga mo'ljallangan Ish vaqti normasi hisob-kitoblarini har yili ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

ish vaqtini hisobga olish masalalarida tashkilotlarga uslubiy yordam beradi;

10) mehnat, bandlik va mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash masalalari bo'yicha:

xalqaro hamkorlik, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan mehnat va bandlik sohasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish hamda takomillashtirish sohasida takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

mehnat va bandlik masalalari yuzasidan Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarda belgilangan tartibda hamkorlik qiladi va O'zbekiston Respublikasining manfaatlari bo'yicha ish ko'radi;

Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarining, mehnat va bandlik masalalari bo'yicha tuzilgan boshqa xalqaro shartnomalar bajarilishi monitoringi olib borilishini tashkil etadi, belgilangan tartibda tegishli hisobot va ma'ruzalar tayyorlaydi va taqdim etadi;

manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari bilan birgalikda mehnat huquqlariga rioya etish masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar missiyasi ishini tashkil etadi;

aholini ish bilan ta'minlash va mehnatni muhofaza qilishga ko'maklashish maqsadlariga yo'naltiriladigan xorijiy donorlar va kredit tashkilotlarining mablag'lari belgilangan tartibda jalb qilinishini va ulardan foydalanishni tashkil etadi;

bandlik va mehnat munosabatlari sohasida xalqaro shartnomalar tuzish to'g'risida takliflar kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati, ish beruvchilar va xodimlar vakillik organlari o'rtasidagi milliy uch tomonlama ijtimoiy muloqotda, shuningdek uch tomonlama maslahatlashuvlarda xalqaro mehnat standartlarini qo'llashga ko'maklashish maqsadida ishtirok etadi;

chet davlatlarning tuzilmalari va xalqaro tashkilotlar bilan Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan hamkorlik qiladi;

11) mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha aholi va ish beruvchilar o'rtasida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish masalalari bo'yicha:

fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya qilish va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini yaratish va mehnatni muhofaza qilish zarurligi to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

mehnat, bandlik, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi sohasidagi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini izohlovchi materiallar tayyorlaydi va aholi o'rtasida, shu jumladan ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali tarqatadi;

12) kam ta'minlangan oilalarga o'z vaqtida nafaqalar to'lanishi va moddiy yordam berilishi yuzasidan monitoring o'tkazish, ish bilan ta'minlashda va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishda ko'maklashish orqali kam ta'minlangan oilalarni muhtojlikdan xalos qilish bo'yicha yakka tartibdagi dasturlarni ishlab chiqish masalalari bo'yicha:

kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar to'lanishi yuzasidan tizimli monitoring olib boradi;

kam ta'minlangan oilalarni muhtojlikdan xalos qilish, ularni oilaviy tadbirkorlikka va hunarmandchilikka jalb qilish, shuningdek o'zini o'zi band qilishning turli shakllarini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha yakka tartibdagi dasturlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari, tijorat banklari, aholini ijtimoiy himoya qiluvchi va unga yordam ko'rsatuvchi boshqa davlat organlari, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

13) tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uslubiy ta'minlash masalalari bo'yicha:

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari faoliyatini va ular bajarayotgan ishlari holatini o'rganadi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari buzilgan holatlarni bartaraf etish, shuningdek aybdor shaxslarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortish choralarini ko'radi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari xodimlarini lavozimga tayinlashda va lavozimidan ozod etishda ishtirok etadi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlariga mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ko'rsatmalar beradi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari xodimlarining malakasini oshirilishini tashkillashtiradi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilaydi, attestatsiyadan o'tganlik to'g'risida guvohnoma beradi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari xodimlari hisobini yuritadi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibini, ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun ma'lumotlar taqdim etish shakllari va muddatlarini belgilaydi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish masalasini mehnat organlari bilan kelishish tartibini belgilaydi;

tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlaydi;

14) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirishda, ularni vataniga qaytarishda, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish vaqtida huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, shuningdek xorijiy ishchi kuchini jalb qilishga ruxsatnomalar va O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun xorijiy fuqarolarga tasdiqnomalar berish masalalari bo'yicha;

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyatini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish va ularning mehnat huquqlarini ta'minlash jarayonlarini tartibga solish masalalari bo'yicha chet davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qiladi;

mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini tartibga solish va ularning mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha chet davlatlarning vakolati organlari bilan hamkorlik qiladi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish orqali ularning mehnat faoliyatiga doir huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashadi;

xorijda ishga joylashishni xohlovchi jismoniy shaxslar ma'lumotlarining yagona bazasini yuritadi;

xususiy bandlik agentliklari va xorijiy ish beruvchilar reyestrlari yuritilishini tashkil etadi;

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash hamda himoya qilish jamg'armasi faoliyatini tashkil etadi;

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash hamda himoya qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish vaqtida tazyiqqa uchragan, majburiy mehnatga majbur qilingan va tahqirlangan, mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, murakkab moliyaviy ahvolda qolgan va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, tirikchilik uchun mablag'siz qolgan fuqarolarni huquqiy va ijtimoiy himoya qiladi, shuningdek ularni O'zbekiston Respublikasiga qaytarishga ko'maklashadi;

xorijda ishga joylashtirish uchun ko'rsatilgan nomzodlar bilan dastlabki moslashtirish tadbirlarini o'tkazadi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha yuridik shaxslar faoliyatini litsenziyalash jarayonini tashkil etadi, litsenziya talablari va shart-sharoitlariga rioya etilishini nazorat qiladi;

belgilangan tartibda xorijiy ishchi kuchini jalb qilishga ruxsatnomalar va O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun xorijiy fuqarolarga tasdiqnomalar beradi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan tashkilotlarda ishlovchi xorijiy fuqarolar hisobini yuritadi;

malakali mutaxassislarni jalb qilish sohasida xalqaro hamkorlikni tashkil etadi, O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga doir huquqlarini amalga oshirishda ularga ko‘maklashadi;

15) faoliyatning boshqa sohalarida:

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqadi, shuningdek Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etish yuzasidan zarur xatti-harakatlarni amalga oshiradi;

bandlik va ishga joylashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha fuqarolarning va ish beruvchilarning fikrlari, takliflari va qonuniy talablarini o‘rganadi hamda tahlil qiladi va shu asosda ularni hal qilishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar yuzasidan takliflar ishlab chiqilishini ta‘minlaydi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda mehnat organlarining yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari bilan ishlashini takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqadi;

vakolatli huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda odam savdosi jabrdiydalarini rehabilitatsiya qilish va ularga yordam ko‘rsatishda o‘z vakolatlari doirasida ko‘maklashadi, jabr ko‘rgan fuqarolar huquqlarini izohlaydi;

hududiy bandlikka ko‘maklashish jamg‘armalari faoliyatini, shu jumladan pul mablag‘larini sarflash samaradorligi va natijadorligini nazorat qiladi;

kadrlarning qayta tayyorlanishini va malakasi oshirilishini tashkil etadi, Vazirlik va idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlar rahbarlari hamda mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazadi;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan birgalikda aholi turmush darajasi va farovonligini o‘rganishda va uni yanada oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi.

(10-band 15-kichik bandining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 777-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son)

11. Vazirlik to‘g‘ridan to‘g‘ri, shuningdek hududiy bo‘linmalar va uning bo‘ysunuvidagi boshqa tashkilotlar orqali o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi.

Vazirlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

2-§. Vazirlik markaziy apparatining vazifalari va funksiyalari

12. Quyidagilar Vazirlik markaziy apparatining vazifalari hisoblanadi:

1) hududiy bo‘linmalar va idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlar bilan birgalikda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta‘minlash;

2) mamlakat mehnat bozorining amaldagi holatini puxta tahlil qilish asosida aholini ish bilan ta‘minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish;

3) ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

4) mehnat bozorini tartibga solish, bandlik, mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish, kasb va mehnat standartlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek ular yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

5) ilg‘or axborot texnologiyalarini ishga joylashtirish jarayonlariga joriy etish;

6) mehnat, mehnatni muhofaza qilish va bandlik sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish, mehnat sharoitlari ekspertizasini amalga oshirish, mehnat munosabatlarni,

mehnatni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

7) mehnatga haq to'lashni normalash, mehnat standartlarini joriy etish va mehnat munosabatlarini takomillashtirish;

8) mehnat, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash;

9) mehnat huquqlari va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha aholi va ish beruvchilar o'rtasida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

10) tashkilotlarning mehnatni muhofaza qilish xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uslubiy ta'minlash;

11) hududiy bo'linmalar va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlarda kadrlar bilan ta'minlashni muvofiqlashtirish;

12) ishga joylashtirish, o'qitish va malaka oshirish, malakani baholash bo'yicha xizmatlarga bo'lgan davlat buyurtmasini moliyalashtirish, keyinchalik tegishli ravishda xususiy bandlik agentliklariga, ishsizlarni va band bo'lmagan aholini o'qitish markazlariga hamda malakani baholash markazlariga haq to'lash;

13) kovorking-markazlarni tashkil etish va saqlab turish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratish;

14) ishga joylashtirish, o'qitish va malaka oshirish, malakani baholash bo'yicha xizmatlarga bo'lgan davlat buyurtmasini bajarish bo'yicha Vazirlikning hududiy bo'linmalari va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar faoliyati nazorat va tahlil qilinishini ta'minlash;

15) idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar rivojlanishiga ko'maklashish, ularni rivojlantirish konsepsiyalari va istiqbollarini belgilash.

13. Vazirlikning markaziy apparati o'ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) Vazirlik va uning rahbariyati faoliyatini tashkiliy hamda axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi;

2) hududiy bo'linmalar va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi yuzasidan muntazam nazoratni ta'minlaydi;

3) bandlik va mehnat munosabatlari vazirining hamda o'rinbosarlarining buyruqlari va farmoyishlari bajarilishini o'z vakolatlari doirasida tashkil etadi;

4) Vazirlik tomonidan Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida qayta ishlanishini tashkil etadi, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizasini o'tkazadi;

5) hududiy bo'linmalar va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar faoliyati monitoringini tashkil etadi;

6) mehnat bozorini rivojlantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishga ko'maklashadi;

7) Vazirlik faoliyatini, shu jumladan norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlashni tashkil etadi;

8) mehnat bozori rivojlanishi, aholini ish bilan ta'minlash darajasi va tuzilmasini, yangi ish o'rinlari tashkil etilishi, mehnat migratsiyasi to'g'risida Vazirlik rahbariyati uchun axborot to'playdi, umumlashtiradi va tahlil qiladi;

9) aholini ish bilan ta'minlash, mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi, mehnatga haq to'lash masalalari va markaziy apparat vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo'yicha tadbirkorlik subyektlarini axborot, uslubiy, tashkiliy va konsultativ qo'llab-quvvatlaydi;

10) operativ, tashkiliy, kadrlar, moliyaviy, ishlab chiqarish-xo'jalik va Vazirlik vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal etilishi bilan shug'ullanadi;

11) Vazirlik hududiy bo'linmalari va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar faoliyatini nazorat qiladi va tahlil qiladi;

12) Vazirlikning hududiy bo'linmalari va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar bilan birgalikda o'ziga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlaydi;

13) aholini ishga joylashtirish sohasida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar bilan hamkorlik qiladi;

14) Vazirlik tizimi tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etadi va amalga oshiradi;

15) ishga joylashtirish, o'qitish va malaka oshirish, malakani baholashga doir xizmatlarga bo'lgan davlat buyurtmasini bajarish bo'yicha Vazirlik hududiy bo'linmalari va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar faoliyatini nazorat va tahlil qiladi;

16) kovorking-markazlarni tashkil etish va saqlab turish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga mablag'larni ajratadi;

17) jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlarni tashkil etadi;

18) xorijiy investitsiyalar jalb etilishini tashkil qiladi va xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi;

19) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

3-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalarining vazifalari hamda funksiyalari

14. Quyidagilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ishtirok etish;

2) tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shaharlar) hokimlari, hududiy prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat soliq xizmati rahbarlari tomonidan rahbarlik qilinadigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari (keyingi o'rinlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari deb ataladi) bilan hamkorlikni amalga oshirish;

3) aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi sohasidagi va ular vakolatiga kiradigan boshqa masalalarga doir qonun hujjatlariga, normativ hujjatlariga rioya etish yuzasidan monitoring va nazorat olib borish;

4) tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

5) ishga joylashtirish, o'qitish va malaka oshirish, malakani baholash xizmatlari uchun davlat buyurtmasini shakllantirish bo'yicha tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tahlil qilish;

6) kovorking-markazlar tashkil etish va ularni saqlab turish moliyalashtirilishini tashkil qilish bo'yicha tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

7) tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlarda moliya nazoratini tashkil etish va amalga oshirish.

15. Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari o'ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi hamda unga rahbarlik qiladi;

2) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining hamda Vazirlik buyruqlarining tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar tomonidan bajarilishini tizimli nazorat qiladi;

3) tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari, idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlar tomonidan kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o‘z vaqtida ishlab chiqilishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizasi o‘tkazilishini tashkil etadi;

4) tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari, idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlar faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

5) aholini ishga joylashtirish sohasida xizmatlar ko‘rsatish yuzasidan faoliyat olib boruvchi yuridik shaxslar bilan hamkorlik qiladi;

6) tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari va idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlarda moliyaviy nazoratni tashkil etadi va amalga oshiradi;

7) aholini ish bilan ta‘minlash hududiy dasturlari bajarilishi monitoringini olib borish, band bo‘lmagan aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy himoya qilish, mehnat munosabatlari va mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari, idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi;

8) ishga joylashtirish, o‘qitish va malakani baholash xizmatlariga bo‘lgan davlat buyurtmasini shakllantirish, moliyalashtirish va amalga oshirish, keyinchalik tegishli ravishda xususiy bandlik agentliklari, ishsizlar va band bo‘lmagan aholini o‘qitish markazlari hamda malakani baholash markazlariga haq to‘lash bo‘yicha tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi;

9) kovorking-markazlarni tashkil etish bo‘yicha tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari takliflarini umumlashtiradi, shuningdek ularni saqlab turishning moliyalashtirilishini tashkil etadi;

10) tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari va idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlarning moddiy-texnik ta‘minotini tashkil etadi;

11) tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari va idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlar binolari va inshootlaridan joriy foydalanish bo‘yicha ishlar monitoringini o‘tkazadi va muvofiqlashtiradi;

12) jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlarni tashkil etadi;

13) operativ, tashkiliy, kadrlar, moliyaviy, ishlab chiqarish va o‘z vakolatiga kiradigan boshqa masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

14) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

4-§. Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarining vazifalari va funksiyalari

16. Quyidagilar tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta‘minlashda ishtirok etish;

2) aholi, mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi sohasidagi va o‘z vakolatiga kiradigan boshqa masalalarga doir tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

3) ishsizlarni ishga joylashtirish organlariga murojaat qilganlarning ishga joylashtirilishini ta‘minlash, jamoat ishlarida, birinchi navbatda, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yo‘l va uy-joy-kommunal infratuzilma obyektlarini qurish, ta‘mirlash va rekonstruksiya qilish, shahar va tumanlarni obod qilish doirasidagi jamoat ishlarida, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlarida aholini ishtirok etishga jalb qilish;

4) qonun hujjatlariga, normativ hujjatlarga rioya etilishi yuzasidan monitoring va nazorat olib borish;

5) ishga joylashtirish, o‘qitish va malaka oshirish, malakani baholash xizmatlariga bo‘lgan davlat buyurtmasini moliyalashtirish;

6) kovorking-markazlarni tashkil etish va saqlab turishni moliyalashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirish;

7) aholini ishga joylashtirish sohasida xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarni qo‘llab-quvvatlash;

17. Tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari o'ziga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1) tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari faoliyatini tashkiliy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlaydi hamda ularga rahbarlik qiladi;

2) O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlik buyruqlari bajarilishini nazorat qiladi;

3) tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tomonidan tumanlar (shaharlar) hokimliklariga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishini, ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizasi o'tkazilishini tashkil etadi;

4) mehnat organlariga murojaat qilgan ishsizlarning ishga joylashtirilishini ta'minlaydi;

5) mos ish tanlashda fuqarolarga, zarur xodimlarni tanlashda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va boshqa ish beruvchilarga ko'maklashadi;

6) mehnat organlariga murojaat qilgan fuqarolar va ish beruvchilarni ish olish va ishchi kuchi bilan ta'minlash imkoniyatlari, xodimlarga qo'yiladigan talablar to'g'risida va bandlikni ta'minlash bilan bog'liq boshqa masalalar yuzasidan maslahat beradi;

7) ishlamaydigan fuqarolarni kasbga o'qitish, qayta o'qitish va ularning malakasini oshirish to'g'risida o'quv muassasalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzadi;

8) ishsizlarning ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlaydi va ularga yordam beradi, shu jumladan nafaqalar tayinlaydi va to'laydi;

9) mehnat bozorining holatini va uni rivojlantirish istiqbollarini baholaydi, uning monitoringini tashkil etadi va o'tkazadi hamda tegishli axborot tarqatilishini ta'minlaydi;

10) ish izlab murojaat qilgan fuqarolar, shuningdek tegishli hududdagi bo'sh ish o'rinlari (vakant lavozimlar) hisobini yuritadi;

11) aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

12) ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturlariga kiritilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan axborot, shuningdek davlat statistika organlarining ma'lumotlar asosida mazkur dasturlar bajarilishi monitoringini olib boradi;

13) mehnat organlariga murojaat qilgan fuqarolarni o'z kasbiy tayyorgarligi va malaka darajasiga ko'ra ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalarga va tashkilotlarga, agar ularda bo'sh ish o'rinlari (vakant lavozimlar) bo'lsa, yuboradi;

14) ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qabul qilish uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga eng kam ish o'rinlari sonini belgilash to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqadi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ko'rib chiqishi uchun kiritadi, shuningdek mazkur fuqarolarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga yuboradi;

15) fuqarolar bilan ularni oldindan (zarur bo'lsa) kasbga tayyorlagan, qayta tayyorlagan va ularning malakasini oshirgan holda, yo'lkira haqini, sutkalik xarajatlarini to'lab, ishga joylashtirish to'g'risida korxonalar, muassasalar va tashkilotlar nomidan ular kelishuvi bo'yicha shartnomalar tuzadi, shuningdek yangi yashash va ish joyiga jo'nab ketsa, tegishli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari hisobiga nafaqalar beradi;

16) ishsizlarni o'z xohishiga ko'ra haq to'lanadigan jamoat ishlariga belgilangan tartibda yuboradi;

17) O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'larini belgilangan tartibda tasarruf etadi;

18) fuqarolarga ishsizlik nafaqasini belgilangan tartibda tayinlaydi;

19) mehnat, ish bilan ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlari talablariga, mehnat munosabatlarini, moddiy rag'batlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarga rioya etilishini nazorat qiladi;

20) aholini ishga joylashtirish sohasida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat olib boruvchi yuridik shaxslar bilan hamkorlik qiladi;

21) ishga joylashtirish, o'qitish va malaka oshirish, malakani baholash bo'yicha xizmatlarga bo'lgan davlat buyurtmasini moliyalashtiradi, keyinchalik tegishli ravishda xususiy bandlik agentliklariga, ishsizlarni va band bo'lmagan aholini o'qitish markazlariga hamda malakani baholash markazlariga haq to'laydi;

22) kovorking-markazlarni tashkil etish va saqlab turishni moliyalashtirish yuzasidan takliflarni shakllantiradi;

23) ish bilan ta'minlash davlat dasturlari bajarilishi yuzasidan monitoring olib boradi;

24) jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlarni tashkil etadi;

25) operativ, tashkiliy, kadrlar, moliyaviy, ishlab chiqarish xo'jalik tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining vakolatiga kiradigan boshqa masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

26) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

4-bob. Vazirlik va uning hududiy bo'linmalari huquqlari va majburiyati

18. Vazirlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek boshqa hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga belgilangan tartibda kiritish;

mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish masalalarida davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini belgilangan tartibda muvofiqlashtirish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlaridan belgilangan tartibda axborot so'rash va olish;

davlat statistika organlaridan Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalarga doir zarur statistik axborotni bepul olish;

tashkilotlarda mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga, mehnat xavfsizligi standartlariga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarning qoidalari va talablariga rioya etilishini belgilangan tartibda o'rganish va tekshirish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlarni bajaruvchi (xizmatlar ko'rsatuvchi) shaxslar sog'lig'iga mehnat vazifalarini bajarishi vaqtida yetkazilgan zararlarning boshqa omillarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maxsus tekshirish yoki tekshirishda ishtirok etish;

mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy jazolar berish;

mehnatni muhofaza qilish talablariga javob bermaydigan va xodimlar sog'lig'i yoki hayotiga xavf tug'diradigan tashkilotlar faoliyatini yoki korxonalar mablag'laridan foydalanishni o'z vakolatlari doirasida va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatish;

Vazirlik va uning idoraviy bo'ysunuvidagi tuzilmalar davlat mulkini bir bo'linmadan boshqa bo'linmaga bepul foydalanish huquqlari asosida o'z tashkiliy tuzilmasi doirasida belgilangan tartibda o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar huquqlari va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini belgilangan tartibda tasarruf etish hamda ulardan maqsadli foydalanish yuzasidan nazoratni ta'minlash ishlarini tashkil etish;

Vazirlik va uning idora bo'ysunuvidagi tuzilmalari davlat mol-mulkini beg'araz foydalanish huquqi asosida bir bo'linmadan boshqa bo'linmaga, o'z tashkiliy tuzilmasi doirasida balansdan balansga belgilangan tartibda o'tkazish, shtat jadvallarini muvofiqlashtirish, idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar moliya-xo'jalik faoliyati balanslari va hisobotlarini ko'rib chiqish;

idora bo'ysunuvidagi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirish;

idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar tomonidan markazlashgan kapital mablag'lardan samarali foydalanish yuzasidan nazoratni ta'minlash, Vazirlik tizimidagi obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha istiqbolli dasturlar ishlab chiqish tashabbusi bilan chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hududiy bo'linmalariga biriktirilgan binolar, inshootlar va xonalarni realizatsiya qilish yoki buzish to'g'risida qaror qabul qilish xususida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga belgilangan tartibda takliflar kiritish, shuningdek tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarini joylashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobiga binolar, inshootlar va xonalar xarid qilish, rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha qarorlar qabul qilish;

idora bo'ysunuvidagi xo'jalik tashkilotlari tuzilmasini, shtatlar sonini, shu jumladan boshqaruv xodimlarini, mehnatga haq to'lash fondini, xarajatlar smetasini, avtotransport vositalari limitini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda Vazirlik huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining xorijiy vakolatxonalarini ochish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari va idoraviy tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ular tomonidan parametrlar bajarilishini hisobga olgan holda ularning xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibi, hajmi va shartlarini belgilash;

Oldingi tahrirga qarang.

idora bo'ysunuvidagi tashkilotlarda to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish, shu jumladan: "Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi" idora bo'ysunuvidagi davlat muassasasida ilmiy ishlar bajarish, Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tadqiqotlar va so'rovlar o'tkazish; "Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi" MChJda bandlik va mehnat munosabatlari sohasiga oid loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va qo'llab-quvvatlash; Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish markazida, band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi "Ishga marhamat" monomarkazida hamda Kasb-hunarga o'qitish markazlarida o'qitish, malaka oshirish va qayta o'qitish; Kasbiy kompetensiyalarni baholash markazlarida malakani baholash; Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarida mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish;

(18-bandning o'n to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2021-y., 09/21/183/0283-son)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari va Vazirlikning idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar tomonidan uchinchi shaxslarga pulli xizmatlar ko'rsatganlik uchun tariflar va ularning hajmlarini belgilash tartibini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilash;

yangi ish o'rinlari tashkil etgan ish beruvchilarga, shuningdek aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga mansub shaxslarni, eng avvalo, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini, imkoniyatlari cheklangan shaxslarni, harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslarni ishga joylashtiruvchilarga ijtimoiy rag'batlantirish, ish beruvchilarni Vazirlikning faxriy nishonlari, yorliqlari va guvohnomalari bilan taqdirlash, shuningdek ommaviy axborot vositalarida eng yaxshi ish beruvchilar to'g'risida materiallar joylashtirilishini tashkil etish choralarini ko'rish;

ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy javobgarlikni oshirishga hamda yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholini ishga joylashtirish bo'yicha samarali faoliyatni kengaytirishga rag'batlantirishni kuchaytirishga qaratilgan tanlovlarni belgilangan tartibda o'tkazish;

belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish, mehnat, aholini ish bilan ta'minlash, mehnatni muhofaza qilish va ish beruvchilar fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasida belgilangan tartibda davriy nashrlar ta'sis etish;

mehnat, bandlik, ishga joylashtirish va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ijtimoiy reklama mahsulotlarini buyurtirish, shuningdek ularni davlat ommaviy axborot vositalarida, stendlarda, bannerlarda va aholi keng tanishishi mumkin bo'lgan boshqa usullarda bepul joylashtirish;

binolarga xizmat ko'rsatish, inventar va xo'jalik asboblari, avtotransportni, aloqa vositalarini, hisoblash, kompyuter va ofis texnikasini ta'minlab turish va ulardan foydalanish, dasturiy ta'minot xarid qilish, shu jumladan outsorsing shartlari asosida xarid qilish bo'yicha ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilishga ilmiy tashkilotlarni, olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan xorijiy mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;

mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda qabul qilingan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning buyruqlari va boshqa hujjatlarini bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda ko'rsatmalar kiritish;

Internet jahon axborot tarmog'ida va ijtimoiy tarmoqlarda belgilangan tartibda rasmiy veb-saytlar yaratish;

Hukumat topshirig'iga binoan xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalash hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xalqaro huquq normalariga muvofiq boshqa davlatlarning vakolatli tashkilotlari bilan mehnat, bandlik va mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha shartnomalar tuzish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, davlat soliq xizmati organlarining yozma murojaatlari asosida maxsus vakolatli organlar bilan dastlabki kelishuvsiz tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar tashkilotlarning bandlik, mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishini rejadan tashqari qisqa muddatli tekshiruvlar o'tkazish;

davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga faoliyati yangi ish o'rinlari tashkil etishga va aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan korxonalarni tashkil etish;

korruptsiya va boshqa suiiste'molliklarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik, xodimning shaxsiy va ishchanlik xususiyatlarini, uning faoliyati samaradorligini muntazam o'rganish, shuningdek malakaga va Inspeksiya faoliyatining turli yo'nalishlarida ishlash tajribasiga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida xodimlar rotatsiyasini amalga oshirish;

kam foydalanilayotgan yoki rekonstruksiya yoxud kapital ta'mirlashni (qayta jihozlashni) talab qiluvchi mavjud binolar, xonalarni ijaraga berish;

davlat mulkining bo'sh turgan obyektlarini, shu jumladan mehnat organlarining faoliyat ko'rsatmaydigan binolarini "nol" xarid qiymati bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda realizatsiya qilish to'g'risida takliflar kiritish;

Vazirlik va uning hududiy bo'linmalari hamda idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar boshqaruv xodimlari mutaxassislarining qo'shimcha shtat birliklarini O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobiga joriy etish;

yuridik shaxslarni ta'sis etish va ularning ishtirokchisi bo'lish;

mehnat organlari reytingini tuzish maqsadida ular faoliyatining samaradorligini oshirish mezonlarini tasdiqlash;

o'z vakolati doirasida konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar o'tkazish, shuningdek boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok etish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan uslubiy materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish;

qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni bajarish bo'yicha Vazirlik hududiy

bo‘linmalari va uning idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlari faoliyatini belgilangan tartibda o‘rganish va tekshirish;

Vazirlik hududiy bo‘linmalari va uning idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlari rahbarlari va vakillari ishtirokida kengashlar o‘tkazish;

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan hamda tezkor hal etishni talab qiladigan masalalar yuzasidan Vazirlik hududiy bo‘linmalari va uning idora bo‘ysunuvidagi tashkilotlari rahbarlariga belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan konferensiya, forum, seminar va treninglar o‘tkazish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash hamda himoya qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga o‘tkazish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, chet davlatlar hukumatlari, davlat organlari va hukumatga qarashli bo‘lmagan tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda ishtirok etish uchun mehnat organlari xodimlarini xorijga yuborish, shuningdek, Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar bilan bog‘liq masalalar yuzasidan loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy va milliy ekspertlarni jalb qilish.

Vazirlik qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

19. Vazirlik davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi shart bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z vakolatlari doirasida qabul qilishga haqli.

Vazirlik zarur hollarda boshqa davlat boshqaruvi organlari bilan birgalikda qo‘shma qarorlar va boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda chop etishga haqli.

20. Vazirlikka yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

5-bob. Vazirlik rahbarlarining javobgarligi

21. Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri (keyingi o‘rinlarda Vazir deb ataladi) Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

22. Vazir o‘rinbosarlari:

Vazirlik nazoratidagi tarkibiy bo‘linmalarda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

o‘z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

23. Markaziy apparatning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari tegishli tarkibiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishi uchun;

o‘z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

24. Vazirlikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar)dagi hududiy bo‘linmalari rahbarlari:

bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun;

o‘z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradilar.

6-bob. Vazirlik faoliyatini tashkil etish

Oldingi tahrirga qarang.

25. Vazirlikka O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Vazir rahbarlik qiladi.

(25-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-apreldagi 234-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2020-y., 09/20/234/0453-son)

26. Vazir o‘z maqomiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zosi hisoblanadi.

27. Vazirning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

28. Vazir bo‘lmagan davrda uning vakolatlari vazirning birinchi o‘rinbosari, u bo‘lmaganda esa — Vazirning buyrug‘iga binoan boshqa o‘rinbosar tomonidan amalga oshiriladi.

29. Vazir:

Vazirlik faoliyatiga yakka boshchilik asosida umumiy rahbarlik qiladi va Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Vazirlik faoliyatining alohida yo'nalishlari va uchastkalariga rahbarlik qilish va idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar faoliyati uchun vazir o'rinbosarlari va Vazirlik tizimining boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini va shaxsiy javobgarligi darajasini belgilaydi;

o'z vakolati doirasida Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan ijro etilishi shart bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida markaziy apparat xarajatlar smetasini va shtat jadvalini tasdiqlaydi, Vazirlikning respublika budjetida turgan idoraviy mansub tashkilotlarining xarajatlar va daromadlar smetalarini ro'yxatdan o'tkazadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari, shuningdek Vazirlikning idoraviy mansub tashkilotlari markaziy apparati tuzilmasiga, zarur bo'lsa, xodimlarning umumiy soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

markaziy apparat bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari to'g'risidagi nizomlarni, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni, Vazirlik tizimiga kiradigan idoraviy mansub tashkilotlar ustavlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

xodimlar, shu jumladan boshqaruv xodimlari, xo'jalik hisobida bo'lgan idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar xodimlari sonini mustaqil belgilaydi, idora bo'ysunuvidagi xo'jalik tashkilotlari tuzilmasini, shtatlar sonini, shu jumladan boshqaruv xodimlarini, mehnatga haq to'lash fondini, xarajatlar smetasini, avtotransport vositalari limitini tasdiqlaydi, shuningdek ularning mol-mulkini tasarruf etadi;

Vazirlik tizimida belgilangan tartibda moliyaviy ishlarni tashkil etadi, idora bo'ysunuvidagi tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni, shuningdek mazkur sohadagi ilmiy tadqiqotlarni moliyaviy jihatdan ta'minlaydi;

Vazirlik huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining xorijdagi vakolatxonalarida attashe lavozimiga tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taqdimnomalar kiritadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

30. Quyidagilar:

markaziy apparat xodimlari, Vazirlik tizimiga kiruvchi idoraviy mansub tashkilotlar va hududiy organlar rahbarlari va rahbar o'rinbosarlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan, Vazir bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari Vazir tomonidan tegishli viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari direktorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlari tomonidan, tegishli tumanlar (shaharlar) hokimlari hamda Vazir bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Jamoat ishlari jamg'armasi ijro etuvchi direktori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari boshliqlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartib-taomil yakunlanguniga

qadar Vazir mazkur tarkibiy bo‘linmalarning samarali va uzluksiz faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida vaqtincha rahbar vazifalarini bajaruvchini tayinlaydi.

Vazir Vazirlikning markaziy apparati tuzilmasiga jamoatchilik asoslarida vazir maslahatchisi lavozimini kiritish va ushbu lavozimga yuqori malakali mutaxassisni, shu jumladan xorij fuqarosini tayinlash huquqiga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari va tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlariga ishga qabul qilishga ko‘rsatilgan nomzodlar majburiy tartibda bir haftalik kirish-moslashtirish kurslaridan, mehnat organlari xodimlari esa muntazam ravishda Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarida har uch yilda kamida bir marta malaka oshirish kurslaridan o‘tadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri “Mikrokreditbank” ATB Kuzatuv kengashining raisi, Kasbiy malaka va bilim kengashi raisi, shuningdek Vazirlik huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash hamda himoya qilish jamg‘armasi Kuzatuv kengashi raisi hisoblanadi.

31. Viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari to‘g‘risidagi nizomlar tegishli viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari bilan kelishilgan holda Vazirning buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari to‘g‘risidagi nizomlar tegishli tumanlar (shaharlar) hokimlari bilan kelishilgan holda tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

32. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (keyingi o‘rinlarda Agentlik deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish va ularni xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish masalalari bo‘yicha Vazirlikning vakolatli organi hisoblanadi, Agentlik respublika fuqarolarini mamlakat hududidan tashqarida ishga joylashtirish borasidagi o‘z faoliyatini xalqaro huquqiy normalar va qoidalarga asoslanib, respublika milliy manfaatlarini va O‘zbekiston Respublikasidagi yuridik shaxs maqomiga ega xorijiy fuqarolar manfaatlarini inobatga olgan holda amalga oshiradi.

Agentlik davlat unitar korxonasi shaklida yuridik shaxs hisoblanadi.

Vazirlik Agentlikning ta‘sischisi hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Agentlikka Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan Agentlik boshlig‘i rahbarlik qiladi. Agentlik boshlig‘i Vazir tomonidan lavozimidan ozod etiladi.

Agentlik boshlig‘ining Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi. Agentlik boshlig‘ining o‘rinbosarlari Vazir tomonidan lavozimidan ozod etiladi.

Agentlikning xorijda vakolatxonalari bo‘ladi. Vakolatxona rahbari Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda Agentlik boshlig‘i tomonidan tayinlanadi.

(32-bandning to‘rtinchi — oltinchi xatboshilari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-149-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 02.03.2022-y., 07/22/149/0186-son)

Agentlikning xorijdagi vakolatxonasi rahbarining bir oylik maoshi miqdori tegishli mamlakatdagi O‘zbekiston Respublikasi Elchisi bir oylik maoshining 85 foizi miqdorida belgilanadi, vakolatxonaning boshqa xodimlari mehnatiga to‘lanadigan haq miqdori elchixona xodimlari mehnatiga to‘lanadigan tegishli haq miqdorining 85 foizi miqdorida belgilanadi.

33. Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi (keyingi o‘rinlarda Ilmiy markaz deb ataladi) davlat muassasasi shaklidagi tashkilot hisoblanadi.

Ilmiy markazga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Ilmiy markaz direktori rahbarlik qiladi.

Ilmiy markaz direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

34. Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslari (keyingi o‘rinlarda Respublika kurslari deb ataladi) davlat muassasasi shaklidagi tashkilot hisoblanadi.

Respublika kurslariga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Respublika kurslari direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan ikki nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

Toshkent shahar Sergeli tumani aholi bandligiga ko‘maklashish markazi Respublika kurslarining o‘quv-amaliy bazasi hisoblanadi.

Respublika kurslarida, shu jumladan Toshkent shahridagi Sergeli tumani aholi bandligiga ko‘maklashish markazidagi o‘quv-amaliy bazada mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

Malaka oshirish o‘quv kurslarini moliyalashtirish yo‘nalishlari va hajmlari, shuningdek malaka oshirishga jalb qilingan mehnat organlari xodimlari soni Vazirlik tomonidan belgilanadi, bunda bir o‘quv guruhidagi tinglovchilar soni 20 kishidan oshishi mumkin emas.

35. Toshkent shahrida ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish markaziga (keyingi o‘rinlarda Kasbga o‘qitish markazi deb ataladi) Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Kasbga o‘qitish markazi direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

Kasbga o‘qitish markazi davlat muassasasi shaklidagi tashkilot hisoblanadi.

36. Malakani baholash markaziga (keyingi o‘rinlarda MBM deb ataladi) Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

MBM mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi tashkilot hisoblanadi. Vazirlik MBM ta‘sischisi hisoblanadi.

MBM direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan ikki nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

37. Mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi” MChJ (keyingi o‘rinlarda — Loyihalarni boshqarish markazi). Loyihalarni boshqarish markaziga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi;

Loyihalarni boshqarish markazi direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ikki nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

Loyihalarni boshqarish markazi mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi tashkilot hisoblanadi (ta‘sischisi — Vazirlik).

(37-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.04.2021-y., 09/21/183/0283-son)

38. Toshkent va Farg‘ona shaharlarida joylashgan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun respublika ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari (keyingi o‘rinlarda ixtisoslashtirilgan kollejlari deb ataladi) davlat muassasalari hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan kollejlarga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

Ixtisoslashtirilgan kollej direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

39. Kasb-hunar kollejlari davlat muassasalari hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlari Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan kollej direktori rahbarlik qiladi.

Kasb-hunar kollej direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

40. Band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi “Ishga marhamat” monomarkazi (keyingi o‘rinlarda — “Ishga marhamat” monomarkazi) davlat muassasasi hisoblanadi.

Vazirlik “Ishga marhamat” monomarkazining ta‘sischisi hisoblanadi.

“Ishga marhamat” monomarkaziga Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Monomarkaz direktori rahbarlik qiladi.

“Ishga marhamat” monomarkazi direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan uch nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

“Ishga marhamat” monomarkazi faoliyati Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari, xo‘jalik faoliyati natijasida tushgan mablag‘lar va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

(40-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.04.2021-y., 09/21/183/0283-son)

41. O‘zbekiston-Malayziya kasb-hunar ta‘limi markazi (keyingi o‘rinlarda O‘zbekiston-Malayziya markazi deb ataladi) mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi tashkilot hisoblanadi. Vazirlik va xorijiy hamkor O‘zbekiston-Malayziya markazining ta‘sischisi hisoblanadi.

O‘zbekiston-Malayziya markaziga xorijiy hamkor bilan kelishilgan holda Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi.

O‘zbekiston-Malayziya markazi direktorining Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ikki nafar o‘rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o‘rinbosari bo‘ladi.

42. Oliy yuridik ma‘lumotga ega Davlat mehnat Inspeksiyasining Davlat mehnat inspektorlari davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlariga tenglashtiriladi, ularga adliya organlari xodimlariga beriladigan mansab darajalari tatbiq etiladi.

43. Vazirlikda Vazir (hay‘at raisi), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining o‘rinbosarlari, shuningdek, Vazirlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo‘linmalar rahbarlaridan iborat hay‘at tuziladi.

Hay‘atning soni va shaxsiy tarkibi Vazir taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay‘atga quyidagi vazifalar yuklanadi:

bandlik va mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni yanada takomillashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqqan holda Vazirlik faoliyatining qonunchilikda belgilangan asosiy yo‘nalishlarini tanqidiy ko‘rib chiqish;

qonunchilik hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida va Hukumat qarorlarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha Vazirlik va uning tuzilmaviy bo‘linmalari rahbarlarining shaxsiy mas‘uliyatini oshirishga doir aniq choralar ko‘rgan holda, quyi tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini tizimli ravishda eshitib borishni tashkil qilish;

aholini ish bilan ta‘minlash hududiy va tarmoq dasturlari, shuningdek 2017 — 2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha [Harakatlar strategiyasida](#) nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishga oid Davlat dasturini, jumladan mehnat bozorini tartibga solish va ijtimoiy sohani rivojlantirishga doir tadbirlarning bajarilishi samaradorligini har chorakda va tizimli ravishda ko‘rib chiqish;

ijro intizomi darajasini oshirish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va xalq qabulxonalaridan tushayotgan murojaatlarni o‘z vaqtida hamda sifatli ko‘rib chiqish asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari bajarilishi yuzasidan samarali nazoratni ta‘minlash, bandlik va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi eng zarur muammolarni hal qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Hay‘atning kengaytirilgan ko‘chma majlisleri o‘tkazilishini tashkil etish, bandlik, mehnat bozori, mehnat munosabatlari va aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha dolzarb masalalarning

joylarda muhokama etilishini ta'minlash, shuningdek yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish;

Vazirlik nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joylashtirish, tayyorlash va qayta tayyorlash masalalarini ko'rib chiqish.

Hay'at shuningdek Vazirlik vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni ham ko'rib chiqishga haqli.

Hay'at majlislariga Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at, agar uning majlisida hay'at tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Vazir va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda Vazir paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

7-bob. Vazirlik tizimi xodimlarini moddiy-texnik ta'minlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari

44. Vazirlik tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va mehnatiga haq to'lash budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Mehnat organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Vazir budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan o'z faoliyatida samaradorlikning eng yuqori ko'rsatkichlarini ta'minlayotgan mehnat organlari xodimlariga ularning lavozim maoshining ikki baravari miqdorida shaxsiy ustamalar belgilashga haqli. Shaxsiy ustamalar miqdorini belgilashda mehnatga haq to'lashga oid Yagona tarif setkasi bo'yicha tarif koeffitsiyentlari bilan bir qatorda budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasidan shaxsiy ustamalar, shuningdek budjetdan moliyalashtiriladigan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari davlat xizmatchilari lavozim maoshlariga 40 foizlik qo'shimcha (mehnatni rag'batlantirish koeffitsiyenti) lavozim maoshi hisob-kitobiga kiritiladi.

Vazir Mehnat organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasi mablag'lari hisobiga hududiy va idora bo'ysunuvdagi tashkilotlarga, shu jumladan Vazirlik huzuridagi budjetdan tashqari jamg'armalarga ish haqiga ustamalarni moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratishga haqli.

45. Vazirlik tizimiga kiradigan mehnat organlari va tashkilotlar rahbarlari hamda xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq moddiy rag'batlantiriladi.

O'z funksional majburiyatlarini samarali bajarayotgan, Vazirlik oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishga salmoqli hissa qo'shgan Vazirlikning yuksak professional, tashabbuskor xodimlariga uy-joy va avtotransport vositalarini xarid qilish uchun kreditlarni rasmiylashtirishda dastlabki badalni to'lash uchun Mehnat organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan foizsiz qarzlarni taqdim etilishi mumkin.

Foizsiz qarzlarni Vazirlik va xodim o'rtasidagi qarzni bitimi tuzish va qarzni uzish jadvalini tasdiqlash orqali Vazirlik hay'ati qarori asosida beriladi. Uy-joy xarid qilish uchun kreditlar bo'yicha dastlabki badalni to'lashga qarzi 10 yilgacha, avtotransport vositalarini xarid qilish uchun kreditlar bo'yicha dastlabki badalni to'lashga qarzi 5 yilgacha beriladi.

Taqdim etiladigan qarzi summasi kredit bo'yicha xarid qilinadigan uy-joy yoki avtotransport vositasi qiymatining 25 foizidan oshmasligi kerak. Qarzi uchinchi shaxsning kafilligi asosida taqdim etiladi, kafillik shartnomasini notarial tasdiqlash talab etilmaydi. Tasdiqlangan jadvalga muvofiq qarzi to'lanmasa, to'lov summasi belgilangan tartibda qarzi bitimi shartlariga muvofiq undirib olinadi.

Mehnat organlarida xodimning mehnat faoliyatini rag'batlantirish tugatilsa, to'lanmagan qarz qoldig'i bir oy muddatda Vazirlikka to'liq qaytarilishi kerak.

46. tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari ishga joylashtirish bo'yicha inspektorlarining (ishlab chiqarish xodimining) shtatlari soni Vazirlik hay'ati tomonidan ishga joylashtirish bo'yicha 1 nafar inspektorga 15,2 ming nafar mehnat resursini hisoblab chiqqan holda belgilanadi. Inspektorlar tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tegishli sektorlarining xodimlari hisoblanadi.

47. Mehnat bozori va mehnat migratsiyasini tahlil qilish yig'ma axborot-tahlil departamenti boshlig'ining hamda Vazirlik markaziy apparati Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'ining mehnatiga haq to'lash bo'yicha razryadi vazir o'rinbosari razryadidan 5 foizga kamaytirilgan miqdorda belgilanadi.

48. Vazirlik xodimlarining ish haqi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan lavozim maoshi, mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalar, rag'batlantiruvchi to'lovlardan iborat bo'ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

49. Vazirlik markaziy apparati va hududiy mehnat organlarining barcha xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan davlat boshqaruvi organlarida ko'p yillik mehnati uchun quyidagi hajmlarda (rag'batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda lavozim maoshiga belgilangan koeffitsiyentlarda) har oyda mukofot puli to'lanadi: 3 yildan 5 yilgacha — 0,2; 5 yildan 10 yilgacha — 0,4; 10 yildan 15 yilgacha — 0,6; 15 yildan yuqori — 0,8.

(49-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2021-y., 09/21/183/0283-son)

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi (keyingi o'rinlarda Bandlik jamg'armasi deb ataladi) mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga doir tadbirlarni moliyalashtirishni samarali tashkil etishni ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining, uning hududiy tashkilotlarining va idora bo'ysunuvdagi tashkilotlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini va loyihalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

3. Bandlik jamg'armasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

mehnat bozorining barqaror va mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlash, aholi bandligi darajasini oshirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini moliyalashtirish;

Oldingi tahrirga qarang.

ishsizlarni, professional ta'lim muassasalari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, shuningdek, ish izlashda qiyinchiliklarga duch kelayotgan va mehnat bozorida teng shartlar asosida raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan kafolatlarni amalga oshirishni moliyalashtirishda ishtirok etish;

(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 182-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2021-y., 09/21/182/0282-son)

ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni ijtimoiy himoya qilishga hamda mehnat organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga doir sifatli xizmatlarning ishsizlar

va band bo'lmagan aholiga, birinchi navbatda, yoshlarga, xotin-qizlarga va nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilishini tashkil etishga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish.

4. Bandlik jamg'armasi yuridik shaxs tashkil etmasdan respublika va mahalliy darajada tuziladigan davlat maqsadli jamg'armasi hisoblanadi.

Bandlik jamg'armasi mablag'lari uning mustaqil balansida aks ettiriladi.

5. Respublika va mahalliy darajada tashkil etilgan Bandlik jamg'armasi mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar G'aznachiligi boshqarmalari tomonidan ochiladigan shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida (keyingi o'rinlarda Bandlik jamg'armasi shaxsiy g'azna hisobvaraqlari deb ataladi) jamlanadi.

2-bob. Bandlik jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish

6. Quyidagilar Bandlik jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari hisoblanadi: yagona ijtimoiy to'lovdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan ajratmalar;

O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan har yili ajratiladigan mablag'lar;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hududiy bo'linmalariga birlashtirilgan binolar, inshootlar va xonalarni realizatsiya qilishdan tushadigan, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan to'liq hajmda Bandlik jamg'armasiga yo'naltiriladigan mablag'lar, bundan baholash va realizatsiya qilishga sarflanadigan amaldagi xarajatlar mustasno;

fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi nodavlat tashkilotlar tomonidan Bandlik jamg'armasiga har bir yuborilgan fuqaro uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan stavka bo'yicha belgilangan summa shaklida ajratiladigan ajratmalar;

barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga hamda davlat maqsadli jamg'armalariga ta'sischi tomonidan belgilanadigan miqdorda to'langandan keyin O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bo'ysunuvdagi davlat unitar korxonalarida qoladigan foydaning bir qismi;

Oldingi tahrirga qarang.

(6-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020-y., 09/20/806/1662-son)

Bandlik jamg'armasining bo'sh mablag'larini tijorat banklariga va boshqa moliyaviy vositalarga joylashtirishdan tushgan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Bandlik jamg'armasi mablag'lari soliq solinadigan obyekt hisoblanmaydi.

7. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari tegishli ravishda, Bandlik jamg'armasi mablag'larini tasarruf etuvchilar hisoblanadi.

8. Bandlik jamg'armasining mablag'laridan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida (keyingi o'rinlarda bandlikka ko'maklashish markazi deb ataladi) ish qidirayotgan va ishsiz maqomiga ega shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir ishlarni moliyalashtirish;

bandlikka ko'maklashish markazlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib ketishi munosabati bilan ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, moddiy yordam, shuningdek, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish vaqtida fuqarolarga qonun hujjatlariga muvofiq bandlikka ko'maklashish markazi tomonidan to'lanadigan stipendiyalarni to'lash;

ishsizlarga muddatidan oldin pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlarini qoplash;

ishga joylashtirish, o'qitish va malaka oshirish, malakani baholash bo'yicha xizmatlarga bo'lgan davlat buyurtmasini moliyalashtirish, keyinchalik tegishli ravishda xususiy bandlik agentliklariga, ishsizlarni va band bo'lmagan aholini o'qitish markazlariga hamda malaka oshirish markazlariga haq to'lash;

bandlikka ko'maklashish markazlari, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari, ishsiz va band bo'lmagan aholini kasb-hunarga o'qitish mintaqaviy markazlar, ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv markazlarining ayrim bo'linmalarini qonun hujjatlariga muvofiq moddiy-texnik ta'minlash va saqlab turish, shuningdek, mehnat organlarini joylashtirish uchun binolar, xonalar va inshootlarni xarid qilish, qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlashni moliyalashtirish;

nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa ijtimoiy zaif fuqarolar toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini yaratishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

axborot-ma'lumot va reklama-noshirlik ishlarini amalga oshirish;

bandlik, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, normalash va mehnatga haq to'lash masalalari bo'yicha normativ-metodik va instruktiv materiallar ishlab chiqilishini moliyalashtirish;

respublika va hududiy darajalarda ijtimoiy o'rganishlar o'tkazish, aholining ayrim guruhlari o'rtasida bandlik, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha so'rovnoma o'tkazish;

band bo'lmagan aholiga ishga joylashtirish, shu jumladan maslahat berishda va kasbga yo'naltiradigan ishlarni, transport va boshqa xizmatlarni tashkil etishda, shu jumladan yo'lda ovqatlanish, yordamini ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

kovorking-markazlarni tashkil etishni va saqlab turishni moliyalashtirish;

mehnat bozoridagi vaziyat keskin bo'lgan tumanlar va shaharlarda yashovchilar uchun bandlik va ish o'rinlarini yaratish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan hududiy dasturlarni ishlab chiqishni, shu jumladan ayrim hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyalarini tayyorlashni, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirishni va xizmatlar sohasi, sanoat va qishloq xo'jaligi sohaslarida obyektlar yaratish uchun arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqishni moliyalashtirish;

maslahatlashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari o'tkazish, maqolalar, risolalar, qo'llanmalar va boshqa axborot materiallari tayyorlash, shu jumladan video va audioroliklar va filmlar, ilmiy-amaliy tadqiqotlar hamda bandlik va mehnatni muhofaza qilish masalalariga taalluqli boshqa tadbirlarni tashkil etish bo'yicha xizmatlarga haq to'lash;

ishga joylashtirish, aholi bandligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish, vakansiyalar va band bo'lmagan aholini hisobga olish sohasida axborot-kompyuter tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish va texnik qo'llab-quvvatlash, shu jumladan dasturiy ta'minot ishlab chiqish va texnik vositalarni xarid qilish;

ishsiz fuqarolarni va band bo'lmagan aholini kasbga o'qitish hamda malakani baholash markazlarini tashkil etish, saqlash, qayta ixtisoslashtirish;

mehnat organlarining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi markaziy apparatining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, uning idora bo'ysunuvdagi tashkilotlari va hududiy bo'linmalari balansida turgan binolar va inshootlarni saqlab turish, ekspluatatsiya qilish, qurish va ta'mirlash, ularni zarur inventar, shu jumladan jihozlar, aloqa, kompyuter va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish;

Mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish respublika kurslarida, shu jumladan Toshkent shahridagi Sergeli tumani aholi bandligiga ko'maklashish markazining o'quv-amaliy

bazasida, shuningdek, chet davlatlarning ilmiy-tadqiqot, ta'lim va boshqa muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi xodimlarini o'qitish, ularning malakasini oshirish va amaliyot o'tkazishini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, uning idora bo'ysunuvidagi tashkilotlari va hududiy bo'linmalar faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shu jumladan dasturiy ta'minot ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi xodimlarining ham mamlakat ichiga, ham tashqarisiga safar qilishi bilan bog'liq xarajatlarni to'lash;

aholi bandligi sohasida xalqaro hamkorlikni moliyalashtirish;

xorijga ishga yuborilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishga joylashtirilishini tashkil etish va ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash masalalari bo'yicha xalqaro loyihalar va shartnomalarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish;

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan xalqaro va milliy konferensiyalar, forumlar, seminarlar va treninglar o'tkazish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, xorijiy hukumatlar, davlat organlari va hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda ishtirok etish uchun mehnat organlari xodimlarini xorijga yuborish, shuningdek, Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar bilan bog'liq masalalar bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy va milliy ekspertlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish;

xodimlar mehnatini rag'batlantirish va mehnat organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasini moliyalashtirish, shu maqsadlarga Bandlik jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga tushadigan mablag'larning 10 foizini yo'naltirish;

qo'llangan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha undirilgan jarimalar summasining 10 foizigacha miqdorda Davlat mehnat inspeksiyasining mehnat organlari rahbarlariga va xodimlariga to'langan mukofotlar o'rnini Mehnat organlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg'armasiga qoplash;

Oldingi tahrirga qarang.

(8-bandning yigirma yettinchi — yigirma to'qqizinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida pista va kavrak plantatsiyalarini tashkil etish maqsadida "Tadbirkorlikni rivojlantirish ofisi" MChJ va Dehqonobod tumani hokimligining qo'shma xulosasi asosida har bir gektar yer uchun 3,0 million so'mdan ko'p bo'lmagan miqdorda pista ko'chatlarini xarid qilish;

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 182-sonli qaroriga asosan yigirma sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2021-y., 09/21/182/0282-son)

tijorat banklarida ochiladigan kredit liniyalari bo'yicha resurslar joylashtirish, keyinchalik banklar tomonidan respublika tumanlari va shaharlarida yangi ish o'rinlari tashkil etishni nazarda tutuvchi kichik va mini-loyihalarni amalga oshirish uchun mikrokreditlar ajratish;

Oldingi tahrirga qarang.

(8-bandning yigirma to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi 195-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)

aholining ijtimoiy zaif qatlamiga mansub shaxslarni, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni zaxiralangan (kvotalangan) eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga bir martalik subsidiyalar berish;

bandlikka ko'maklashish markazlarining yo'llanmasi bo'yicha ishga qabul qilingan aholining ijtimoiy zaif qatlamiga mansub xodimlarni, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga o'qitish va ularning malakasini oshirishga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun ish beruvchilarga bir martalik subsidiyalar berish;

bandlikka ko‘maklashish markazlarida ro‘yxatga olingan ishsiz shaxslarni, ayniqsa kam ta‘minlangan oilalarga mansub xotin-qizlarni kasbga o‘qitishga sarflanadigan xarajatlarni moliyalashtirish uchun kasb-hunar ta‘limi muassasalariga grantlar ajratish;

Oldingi tahrirga qarang.

kasbga o‘qitish markazlarida, professional ta‘lim muassasalarida va oliy ta‘lim muassasalarida kasbga o‘qitishga, fermer va dehqon xo‘jaliklari rahbarlari va xodimlarini hamda tomorqa yer egalari agrotexnologiyalar, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik sohasiga qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun grantlar ajratish;

(8-bandning o‘ttiz to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 182-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2021-y., 09/21/182/0282-son)

Oldingi tahrirga qarang.

klaster usulida faoliyat yuritadigan “Tomorqa xizmati” MChJlar tomonidan tashkil etiladigan tomorqachilik ilmiy-amaliy o‘quv markazlarini jihozlash va ularning faoliyatini moliyalashtirish;

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-yanvardagi 44-sonli qaroriga asosan o‘ttiz to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.01.2021-y., 09/21/44/0072-son)

Oldingi tahrirga qarang.

o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga rag‘batlantiruvchi imtiyozlar berish.

(8-bandning o‘ttiz to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda 806-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.12.2020-y., 09/20/806/1662-son)

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlar.

9. Yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari:

Bandlik jamg‘armasining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida yagona ijtimoiy to‘lovdan tushgan ajratmalar bo‘yicha mablag‘larning jamlanishini;

ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, stipendiyalar, moddiy yordam va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarning o‘z vaqtida tayinlanishi, moliyalashtirilishi va to‘lanishini;

Bandlik jamg‘armasining moliyaviy holati muntazam tahlil qilinishi va prognozlashtirilishini, shuningdek, uning moliyaviy barqarorligini qo‘llab-quvvatlash uchun ogohlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishini;

yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar hajmlarini belgilash to‘g‘risida takliflar tayyorlanishini;

bo‘lg‘usi davrga mo‘ljallangan budjet so‘rovi ishlab chiqilishini va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilishini;

Bandlik jamg‘armasi samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur normativ-huquqiy hujjatlarning o‘z vakolatlari doirasida ishlab chiqilishini;

Bandlik jamg‘armasining keyingi yilga mo‘ljallangan daromad manbalari va mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha prognoz loyihasi ishlab chiqilishini hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilishini;

Bandlik jamg‘armasi budjetini ijro etish bo‘yicha hisobotlar, shuningdek, bir yilda bir marta Bandlik jamg‘armasi daromadlari va mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha mustaqil auditor tekshiruvi natijalari tayyorlanishini hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilishini;

Bandlik jamg‘armasi to‘lov subyektlari va moliyalashtirish obyektlari bo‘yicha elektron ma‘lumotlar bazasi to‘liq hisobga olinishini va yuritilishini ta‘minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Bandlik jamg'armasi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan xalqaro tashkilotlar va chet davlatlarning vakolatli organlari bilan belgilangan tartibda hamkorlik qiladi.

10. Yagona ijtimoiy to'lovdan tushgan ajratmalar va boshqa manbalar hisobiga shakllanadigan Bandlik jamg'armasi mablag'larining yetmish foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari ixtiyorida qoladi, ular keyinchalik bandlikka ko'maklashish markazlari o'rtasida taqsimlanadi, o'ttiz foizi esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, tegishli hududiy bandlik bosh boshqarmalari to'lov hujjati bilan o'tkazish orqali respublika darajasida jamlanadi.

11. Hududiy darajada tashkil etilgan Bandlik jamg'armasining yetishmayotgan mablag'lari respublika Bandlik jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Zarurat bo'lsa, hisobot davri yakunlari bo'yicha mahalliy darajada tashkil etilgan Bandlik jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'i O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qarori bilan keyinchalik taqsimlash uchun respublika darajasiga yo'naltirilishi mumkin.

Bandlik jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi bo'sh mablag'lar yil boshida qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti taqchilligini qoplashga yo'naltirilishi mumkin emas.

12. Bandlik jamg'armasi mablag'larini mazkur Nizomda nazarda tutilmagan maqsadlar uchun ishlatishga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Bandlik jamg'armasining daromadlari prognozini ko'rib chiqish va kelishish hamda mablag'laridan foydalanish tartibi

13. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Bandlik jamg'armasining tushum manbalari bo'yicha keyingi yilga mo'ljallangan daromadlari prognozini va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha xarajatlar prognozini (keyingi o'rinlarda Bandlik jamg'armasining budjet loyihasi deb ataladi) har yili qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning birinchi iyulidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi. Bandlik jamg'armasining budjet loyihasi quyidagilarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi:

avvalgi yil uchun mablag'larning amalda tushishi va hududlar kesimida joriy yilning birinchi yarim yilligidagi tushumlar manbalari bo'yicha daromadlarning kutilayotgan ijrosi;

Bandlik jamg'armasiga hududlar kesimida to'lanadigan qonun hujjatlarida belgilangan to'lovlar bo'yicha hisobot moliya yili oxiridagi tashkilotlarning (ish beruvchilarning) kreditor qarzdorligi;

Bandlik jamg'armasining avvalgi yildagi mablag'lari sarfining yakuniy ko'rsatkichlari va foydalanish yo'nalishlari va hududlar kesimida, ko'rib chiqilayotgan davrda tasdiqlangan prognozlarni bajarish natijalaridan kelib chiqib, joriy yilning birinchi yarim yilligidagi Bandlik jamg'armasi xarajatlar qismining kutilayotgan ijrosi;

avvalgi yilda ish haqi oshishi va xodimlar soni ko'payishi sur'atlarini inobatga olgan holda hisoblab chiqilgan mehnatga haq to'lash fondining prognoz parametrlari.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Bandlik jamg'armasining taqdim etilgan budjet loyihasini ko'rib chiqishda Bandlik jamg'armasiga to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lov ajratmalari stavkasining bo'lg'usi yilga mo'ljallangan prognoz o'zgarishini va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi ta'sirini hisobga oladi.

15. Bandlik jamg'armasining ko'rib chiqilgan va kelishilgan budjet loyihasi keyingi yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti loyihasi bilan birga budjetnoma tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi keyingi yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining asosiy parametrlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin o'n ish kuni ichida Bandlik jamg'armasi budjetining asosiy parametrlarini O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga yetkazadi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan tasdiqlangan Bandlik jamg‘armasi budjetining asosiy parametrlarini olganidan keyin:

tushumlar manbalari Jamg‘armaning keyingi yilga mo‘ljallangan daromadlarining asosiy parametrlarini va mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha xarajatlarning asosiy parametrlarini bir hafta muddatda tasdiqlaydi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, bandlikka ko‘maklashish markazlari uchun chorakma-chorak taqsimlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hay‘at majlisida ular ishlari yakunlarining ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, bandlikka ko‘maklashish markazlari Bandlik jamg‘armasi budjetining tasdiqlangan ko‘rsatkichlarini bajarish uchun Bandlik jamg‘armasi daromadlari va xarajatlarining tasdiqlangan prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta‘minlaydi.

4-bob. Bandlik jamg‘armasining ijro etuvchi organi

19. Quyidagilar Bandlik jamg‘armasining ijro etuvchi organlari hisoblanadi:

respublika darajasida — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish boshqarmasi;

hududiy darajada — Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanish bo‘yicha shu‘balar.

20. Ijro etuvchi organ:

Bandlik jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari bo‘yicha prognozni va hisobot balanslarini shakllantiradi;

Bandlik jamg‘armasining daromadlari va xarajatlarini ijro etish bo‘yicha hisob va hisobot yuritilishini ta‘minlaydi, Bandlik jamg‘armasi mablag‘lari taqsimlovchi tomonidan tasdiqlandan so‘ng, hisobotni tegishli moliya organlariga yuboradi;

Bandlik jamg‘armasi moliya hisobotining ishonchliligini ta‘minlaydi;

Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanish auditini tashkil etadi;

Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish masalalari bo‘yicha izohlar beradi.

5-bob. Bandlik jamg‘armasining tushumini va mablag‘laridan foydalanilishini nazorat qilish hamda javobgarlik

21. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari, bandlikka ko‘maklashish markazlari Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan qat‘iyon maqsadli va samarali foydalanilishi uchun javob beradi.

22. Ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, stipendiyalar va moliyaviy yordam hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa to‘lovlar to‘g‘ri to‘lanishi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va hududiy mehnat organlari tomonidan nazorat qilinadi.

23. Bandlik jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish yuzasidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qaroriga
3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda Inspeksiya deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Inspeksiya O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Inspeksiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasiga**, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Inspeksiya o‘z faoliyatini bevosita va o‘z hududiy inspeksiyalari orqali davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Inspeksiya faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, Mehnat organlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Mehnatni rag‘batlantirish jamg‘armasi deb ataladi) mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi.

6. Ish beruvchilar o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida mehnat, aholi bandligi, mehnat muhofazasi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ularga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to‘sqinliksiz foydalanish, shuningdek, barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, mehnat huquqi normalariga ega boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi masalalariga doir texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda mehnat standartlari talablariga rioya etish mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratining predmeti hisoblanadi.

Mehnat, bandlik va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati quyidagilarga nisbatan amalga oshiriladi:

belgilangan tartibda yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olingan va yuridik shaxs tashkil etmay tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, fuqarolar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan davlat organlari va muassasalari, yuridik shaxslar, shuningdek, uy xo‘jaligini yuritish bo‘yicha shaxsiy xizmat ko‘rsatish va yordam berish maqsadida jismoniy shaxslar, fuqarolar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanmaydigan jismoniy shaxslar (keyingi o‘rinlarda ish beruvchilar deb ataladi);

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va ish beruvchilar bilan mehnat munosabatlariga kirishgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar (keyingi o‘rinlarda xodimlar deb yuritiladi).

2-bob. Inspeksiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Inspeksiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya etishni va ularni himoya qilishni, shuningdek, xavfsiz shart-sharoitlar va mehnatni muhofaza qilishni ta‘minlash sohasidagi qonun hujjatlari talablariga tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘i nazar tashkilotlar tomonidan rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish;

respublikadagi mehnatni muhofaza qilish holatini, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklariga chalinish sabablarini muntazam tahlil qilish, ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish;

mehnat to‘g‘risidagi bitimlar va lokal hujjatlarning, ish beruvchilarning mehnat munosabatlari sohasidagi buyruqlari qonun hujjatlariga mos kelishini tizimli tahlil qilish;

mehnat munosabatlari subyektlarining mehnat, aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlari monitoringini va himoyasini ta‘minlash;

ish o'rinlarini mehnat sharoitlari yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish sifati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan ularga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish, shuningdek, barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish;

majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik va uni to'liq bartaraf etish, shu jumladan aybdor mansabdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish orqali bartaraf etish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini manfaatdor vazirliklar, idoralar va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda tashkil etish;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash va ularga rioya etish masalalari bo'yicha xodimlar va ish beruvchilarga, shu jumladan tadbirkorlik subyektlariga maslahat va uslubiy yordam berish, ishlab chiqarish jarayonida jarohat olish va baxtsiz hodisalarning oldini olishga doir profilaktika ishlarini o'tkazish;

fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya qilish hamda xavfsiz mehnat sharoitlarini va mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash zarurligi to'g'risida yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

mehnat munosabatlari va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar, shuningdek fuqarolarning munosib va xavfsiz mehnat sharoitlariga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga doir takliflar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish.

8. Mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasida yuklatilgan vazifalar va davlat nazorati predmetiga muvofiq Inspeksiya quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya etishni va ularni himoya qilishni, shuningdek, xavfsiz shart-sharoitlar va mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash sohasidagi qonun hujjatlari talablariga tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar tashkilotlar tomonidan rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish:

ish beruvchilar va mansabdor shaxslarning mehnat qilish, munosib va xavfsiz mehnat sharoitlari va ishsizlikdan himoya qilishga doir konstitutsiyaviy huquqni ta'minlash maqsadida mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholini ish bilan ta'minlash va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishini tekshiradi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ularga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish, shuningdek, barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmaslik holatlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda monitoring o'tkazadi va ularga o'z vaqtida ta'sir chorasini ko'radi;

mehnat to'g'risidagi bitimlar va lokal hujjatlarning, ish beruvchilarning mehnat munosabatlari sohasidagi buyruqlari qonun hujjatlariga mos kelishini tahlil qiladi;

jamoat shartnomalarda va bitimlarda nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishini nazorat qiladi;

ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish sifatini, qisqartirilgan ish vaqtini, noqulay mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun qo'shimcha yillik ta'tillar belgilashni davlat tomonidan nazorat qiladi, ekspertiza o'tkazilishini nazorat qiladi va mehnat sharoitlari bo'yicha ekspertiza o'tkazadi, uning natijalari bo'yicha tegishli xulosalar beradi;

xotin-qizlar mehnatidan foydalanish taqiqlangan noqulay mehnat sharoitlarida bajariladigan ishlar ro'yxatini hamda og'ir narsalarni ko'tarishda va tashishda xotin-qizlar uchun cheklangan yuk normalari to'g'ri qo'llanishi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshiradi;

fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish hamda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini kameral nazoratni o'tkazadi;

o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan foydalanish taqiqlangan noqulay mehnat sharoitlarida bajariladigan ishlar Ro'yxatini hamda o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan ko'tariladigan va tashiladigan og'irlikning cheklangan normalari to'g'ri qo'llanishi bo'yicha davlat nazoratini amalga oshiradi;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining yagona reyestri yuritilishini ta'minlaydi, mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi masalalari bo'yicha ularning mutaxassislarini o'qitish va attestatsiyadan o'tkazishda ko'maklashadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozori professional ishtirokchilarining faoliyati ustidan belgilangan tartibda monitoring olib boradi va ularning faoliyatini yaxshilash, shu jumladan ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

xodimlarning shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari, ishlab chiqarish muhitini nazorat qilish uskunalari bilan to'g'ri ta'minlanganini, shuningdek, noqulay va alohida tusga ega bo'lgan sharoitlarda ishlaganlik uchun xodimlarga imtiyozlar va kompensatsiyalar taqdim etilishini nazorat qiladi hamda ulardan foydalanish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi;

xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha ish beruvchilar tomonidan to'lovlar amalga oshirilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat qiladi;

tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilishga doir ishlarning mehnatni muhofaza qilish talablariga mos kelishini manfaatdor organlar bilan hamkorlikda sertifikatlashni amalga oshiradi va o'tkazadi;

mehnat, aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratiga muvofiq qonun hujjatlari buzilishining oldini olish va buzilgan holatlarni bartaraf etish yuzasidan zarur choralar ko'radi;

2) respublikada mehnatni muhofaza qilish holatini, ishlab chiqarish jarayonida jarohatlanish va kasb-kasalliklariga chalinish sabablarini muntazam tahlil qilish, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish:

ishlab chiqarish jarayonida jarohat olish va kasb kasalliklariga chalinish haqida axborot to'playdi va buning sabablarini tahlil qiladi, ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalarni va xodimlarning sog'lig'iga ular mehnat majburiyatlarini bajarishi vaqtida yetkazilgan zararni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshiradi;

ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalar sabablarini tahlil qiladi va ularning oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

mehnat va mehnat xavfsizligi sohasida aniqlangan huquqbuzarliklarni aniqlash bo'yicha belgilangan tartibda choralar ko'radi.

3) mehnat to'g'risidagi bitimlar va lokal hujjatlarning, ish beruvchilarning mehnat munosabatlari sohasidagi buyruqlari qonun hujjatlariga mos kelishini tizimli tahlil qilish sohasida:

mehnat to'g'risidagi bitimlar va lokal hujjatlarning, ish beruvchilarning mehnat munosabatlari sohasidagi buyruqlari qonun hujjatlariga mos kelishini tahlil qiladi;

mehnat to'g'risidagi bitimlar va lokal hujjatlarning asosiy prinsiplari, ish beruvchilarning mehnat munosabatlari masalalariga doir buyruqlari qonun hujjatlariga mos kelishiga rioya etilishini nazorat qiladi;

tomonlar imzolagan tarmoq kelishuvlarni, uning ilovalarini belgilangan tartibda bildirish ro'yxatidan o'tkazadi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi bitimlar va lokal hujjatlarning, ish beruvchilarning mehnat munosabatlari masalalariga doir buyruqlari qonun hujjatlariga mos kelmasligi aniqlanganda xulosalar beradi;

4) mehnat munosabatlari subyektlarining mehnat, aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlari monitoringini va himoyasini ta'minlash sohasida:

mehnat munosabatlari subyektlari, shu jumladan kasanachilik shartlari asosida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlar hamda shaxsiy tomorqa, dehqon va fermer xo'jaliklarida band bo'lgan shaxslarning mehnat huquqlari himoyasini ta'minlaydi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan holatlar yuzasidan ularga barham berish va ularning yuzaga kelishiga ko'maklashadigan shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun huquqiy tartibga solish choralarini ko'radi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarida kasaba uyushmalariga va xodimlarning boshqa vakillik organlariga berilgan huquqlarni amalga oshirishda ko'maklashadi, shuningdek, ularga ish beruvchilar rioya etishini nazorat qiladi;

o'tkazilgan tekshiruvlar natijalariga ko'ra, mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va xodimlarning sog'lig'i yoki hayotiga xavf soladigan tashkilotlar (uning ayrim bo'linmalari) faoliyatini yoki ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni ular mehnat xavfsizligi talablariga muvofiqlashtirilganiga qadar 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turadi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratiga muvofiq qonun hujjatlari buzilishiga doir jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini, zarur bo'lsa, joyning o'ziga borib ko'rib chiqadi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga doir da'volar, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida xodimlar hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash masalalari yuzasidan sudda ekspertlar sifatida ishtirok etadi;

5) ish o'rinlarini mehnat sharoitlari yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish sifati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish sohasida:

mehnat sharoitlari bo'yicha ekspertiza o'tkazilishini nazorat qiladi va ularning natijalari bo'yicha xulosalar beradi;

ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiyadan o'tkazadi, shuningdek ularning mutaxassislarini mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'qitadi va attestatsiyadan o'tkazadi;

6) nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan ularga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish, shuningdek, barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish sohasida:

tashkilotlarning nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishini o'z vakolatlari doirasida tekshiradi;

tashkilotlarning nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish, shuningdek, barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratishi bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'radi;

ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish, shuningdek barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish masalalari yuzasidan ommaviy axborot vositalarida axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etadi va o'tkazadi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tasdiqlashda ishtirok etadi;

7) majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik va uni to'liq bartaraf etish, shu jumladan aybdor mansabdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish orqali bartaraf etish chora-tadbirlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini manfaatdor vazirliklar, idoralar va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda tashkil etish sohasida:

manfaatdor vazirliklar, idoralar va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda majburiy mehnatga yo'l qo'yimaslik va uni butunlay bartaraf etish, shu jumladan aybdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish orqali bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etadi;

biror-bir shaklda majburiy mehnatdan foydalanish bilan bog'liq xavf-xatarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish orqali xodimlarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari normalari ijrosini nazorat qiladi;

xodimlarning muayyan toifalari (xotin-qizlar, voyaga yetmaganlar, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari talabalari, nogironligi bo'lgan shaxslar, Qurolli Kuchlar safidan bo'shatilgan shaxslar) uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnat huquqlari hamda kafolatlariga rioya etilishini nazorat qiladi;

majburiy mehnatdan foydalanish va kamsitish yuzasidan aniqlangan har bir holat bo'yicha huquqiy tartibga solish choralarini ko'radi hamda qonunbuzarlik holatlari to'g'risida davlat hokimiyatining tegishli organlarini xabardor qiladi;

8) mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash va ularga rioya etish masalalari bo'yicha xodimlar va ish beruvchilarga, shu jumladan tadbirkorlik subyektlariga maslahat va uslubiy yordam berish, ishlab chiqarish jarayonida jarohat olish va baxtsiz hodisalarning oldini olishga doir profilaktika ishlarini o'tkazish:

Inspeksiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan amaliy, konsultativ va uslubiy yordam ko'rsatish uchun ishonch telefonlari joriy etilishini va ishlab turishini ta'minlaydi;

ishonch telefon raqamlariga kelib tushgan muammoli masalalar yuzasidan statistik hisobot yuritadi, ularni tahlil qiladi hamda muammoli va salbiy omillarni bartaraf etish yuzasidan, shu jumladan inspektorlar faoliyati bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

9) fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya qilish hamda xavfsiz mehnat sharoitlarini va mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash zarurligi to'g'risida yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida keng axborot-tushuntirish ishlarini olib borish sohasida:

vazirlikning rasmiy saytida mavzuga doir sahifalar yuritilishini ta'minlaydi, elektron bukletlar va metodik axborot, shu jumladan majburiy mehnatga va mehnat munosabatlari sohasidagi kamsitishlarga yo'l qo'yimaslik va unga to'liq chek qo'yish bo'yicha ko'rgazmali axborot joylashtiradi, ishlab chiqarish jarayonida jarohat olish va baxtsiz hodisalarning oldini olishga doir profilaktika ishlarini o'tkazadi;

xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, tashkilotlar va aholi uchun treninglar hamda davra suhbatlari o'tkazadi;

mehnatga oid huquqiy munosabatlar va mehnat to'g'risidagi, mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan, ularga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish haqidagi qonun hujjatlarini qo'llash masalalari yuzasidan ommaviy axborot vositalarida va aholi o'rtasida axborot-tushuntirish ishlari o'tkazadi;

10) mehnat munosabatlari va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar, shuningdek fuqarolarning munosib va xavfsiz mehnat sharoitlariga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga doir takliflar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish sohasida:

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholini ish bilan ta'minlash va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan o'tkazilgan tekshiruvlar va monitoring materiallarini tahlil qiladi hamda umumlashtiradi;

huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha aniqlangan muammoli jihatlar va ularni bartaraf etish to'g'risida tegishli axborot tayyorlaydi hamda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziriga taqdim etadi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligiga doir amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni va xodimlarning mehnat huquqlari va manfaatlariga rioya etilishini va himoyasini, ularning ishlash jarayonida mehnat shart-sharoitlarini va xavfsizligini ta'minlashga doir mehnat

huquqi normalarini o'z ichiga olgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qiladi, zarur bo'lganda, qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar yuzasidan takliflar kiritadi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

mehnatni muhofaza qilishga doir davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini va hujjatlarni belgilangan tartibda ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarini milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlik qiladi.

9. Inspeksiya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Inspeksiyaning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

10. Inspeksiyaning mansabdor shaxslari o'zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

davlat organlari va boshqa organlar, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan nazorat funksiyalarini bajarish uchun zarur hujjatlar, izohlar, axborot, statistik ma'lumotlar va ma'lumotnomalar olish;

ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini o'rganish, ishlab chiqarish jarayonida jarohat olish bilan bog'liq, shuningdek, mehnat sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qurilish vazirligi, O'zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi hamda Elektr energetikada nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasidan so'rash va olish;

Inspeksiya zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mehnat sohasidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va tashkilotlarning quyidagilardan iborat ma'lumotlar bazalaridan foydalanish: mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan ularga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish, shuningdek barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish to'g'risidagi qonun hujjatlari, mehnat huquqi normalarini o'z ichiga olgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, mehnatni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi masalalariga doir texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar hamda mehnat standartlari;

fuqarolarning mehnat huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish hamda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini kameral nazorat qiladi;

davlat organlari va boshqa organlarga, tashkilotlarga va ularning mansabdor shaxslariga, shuningdek, fuqarolar-ish beruvchilarga bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar berish;

davlat tashkilotlari va muassasalarining mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishini tekshirish va o'rganish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ qarori asosida mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini tekshirish;

maxsus vakolatli organlar bilan oldindan kelishmasdan, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari, davlat soliq xizmati organlarining yozma murojaatlari asosida tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar tashkilotlarning bandlik, mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishini tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga, shuningdek tekshiruv predmeti bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyatiga aralashmay, rejadan tashqari qisqa muddatli (biroq bir kundan ortiq davom etmaydigan) tekshiruvlar o'tkazish;

ushbu Nizomga [1-ilovaga](#) muvofiq tekshiruv hujjatlarini tuzish hamda tashkilotlar rahbarlari va mansabdor shaxslariga mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati predmetiga muvofiq qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etish to'g'risida bajarish shart bo'lgan yozma ko'rsatmalar berish;

ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar sog'lig'iga mehnat majburiyatlarini bajarishi vaqtida yetkazilgan boshqa zararlarni tekshirish (tekshiruvlarda ishtirok etish);

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan ish yuritish, Inspeksiya vakolatiga taalluqli ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazolarni qo'llash;

mehnat, mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish masalalariga doir hujjatlarni va boshqa materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'rganish;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati predmetiga muvofiq qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etish to'g'risida bajarish shart bo'lgan va tashkilotlarning rahbarlariga va boshqa mansabdor shaxslariga taqdim etilgan yozma ko'rsatmalar ijrosini nazorat qilish;

tashkilotlarning mehnat va mehnatni muhofaza qilish, aholi bandligi va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan buyruqlari va boshqa hujjatlarini belgilangan tartibda to'xtatib turish, zarur hollarda ularni belgilangan tartibda bekor qilish yuzasidan ko'rsatmalar kiritish;

tashkilotlarning mehnat xavfsizligi talablariga javob bermaydigan va xodimlarning hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diradigan faoliyatini yoki uskunalardan foydalanishni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turish;

xodimlarning muvofiqlik sertifikatlariga yoki muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalariga ega bo'lmagan yoxud mehnatni muhofaza qilish talablariga mos kelmaydigan shaxsiy himoya vositalaridan va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanishni taqiqlash;

qurilishi bitkazilgan, ta'mirlangan obyektlarni foydalanish uchun qabul qilishga doir komissiya ishida ishtirok etish va ular mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga mos kelmasa, tegishli xulosalar berish;

nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish, shuningdek, temir yo'l, havo, suv, xalqaro avtomobil transportidan, barcha turdagi shahar va shahar atrofi yo'lovchi transportidan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalaniladigan aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish talablarini bajarmaganlik uchun ma'muriy ishlar qo'zg'atish;

aybdorlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka, shu jumladan jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi hujjatlarni tayyorlash hamda huquqni muhofaza qilish organlari va sudga yuborish;

qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risida bayonnoma hamda mehnat va aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarima solish haqidagi qarorni ushbu Nizomning [2 va 3-ilovalariga](#) muvofiq belgilangan shakl bo'yicha rasmiylashtirib, aybdor mansabdor shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish;

huquqbuzarliklar sodir etishga tayyorgarlik ko'rilayotganligi haqida ma'lumotlar bo'lsa, mehnat va aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida, bunday huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntirgan holda, davlat organlari va boshqa organlarga, tashkilotlarga hamda ularning mansabdor shaxslariga, shuningdek, ish beruvchi fuqarolarga ogohlantirishlar kiritish;

mehnat va aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishini, shuningdek, ularning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida yuqori turuvchi tashkilotlar va huquqni muhofaza qilish

organlariga taqdimnomalar, yuqorida ko'rsatilgan qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan tashkilotlar va mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish to'g'risida takliflar kiritish;

Inspeksiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan tashkilot va xodim (xodimlar) o'rtasidagi mehnat nizosini ko'rib chiqish to'g'risidagi da'vo bilan sudga yoki boshqa organga murojaat qilish;

mehnat va mehnatni muhofaza qilish, ishlab chiqarish jarayonida xodimlarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida qonun hujjatlari buzilishi haqidagi da'volar bo'yicha sudda ekspertlar sifatida ishtirok etish;

davlat nazorati predmetiga muvofiq amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga kiritish;

mehnat va aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish yuzasidan xodimlarning va mehnat munosabatlari boshqa subyektlarining murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqish;

xodimlar va mehnat munosabatlarining boshqa subyektlari murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etish uchun tashkilotlarni (ularning vakillarini) taklif qilish;

tashkilotlarda mehnat sharoitlarini ekspertizadan o'tkazish hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda tegishli xulosa berish;

tashkilotning rahbar xodimlari va mutaxassislarini mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan respublikaning imtihon o'tkazuvchi komissiyalari hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ishida ishtirok etish;

belgilangan tartibda mehnatni muhofazasi bo'yicha o'qitilmagan, yo'riqnomadan o'tkazilmagan va bilimi tekshiruvdan o'tkazilmagan shaxslarni ishdan chetlatish to'g'risida takliflar kiritish.

Inspeksiyaning mansabdor shaxslari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Inspeksiyaning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratiga muvofiq amalga oshirishda:

mehnat va aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish va ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq berilgan vakolatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarishi;

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalar normalariga, tekshirilayotgan yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilishi;

davlat organlarining rahbariga, boshqa mansabdor shaxsiga yoki ish beruvchining vakolatli vakiliga tekshiruv o'tkazishda ishtirok etishga to'sqinlik qilmasligi hamda tekshiruv predmetiga taalluqli masalalar yuzasidan tushuntirishlar berishi;

tekshiruv o'tkazish vaqtida ishtirok etayotgan rahbarga, boshqa mansabdor shaxsiga yoki yuridik shaxsning vakolatli vakiliga, yakka tartibdagi tadbirkorga, uning vakolatli vakiliga tekshiruv predmetiga taalluqli axborot va hujjatlarni taqdim etishi;

rahbarni, boshqa mansabdor shaxsni yoki yuridik shaxsning vakolatli vakilini, yakka tartibdagi tadbirkorni, uning vakolatli vakilini tekshiruv natijalari bilan tanishtirishi;

aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha ko'riladigan choralarni aniqlashda ularning huquqbuzarlikka muvofiqligini, odamlar hayoti va sog'lig'i, hayvonlar, o'simliklar, atrof-muhitga xavfini, davlat xavfsizligini, tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar keltirib chiqarishi mumkinligini hisobga olishi, shuningdek, fuqarolarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari cheklanishiga yo'l qo'ymasligi;

yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan o'z xatti-harakatlari yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishda ularning asosli ekanini isbotlashi;

qonun hujjatlarida belgilangan tekshiruvlar o'tkazish tartibi va muddatlariga rioya qilishi shart.

12. Mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi Inspeksiyaning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini amalga oshirishda nazorat predmetiga muvofiq davlat organlaridan mustaqildir hamda O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonun hujjatlariga amal qiladi.

13. Inspeksiyaning mansabdor shaxslari o'z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni samarasiz bajarganligi, shuningdek, g'ayriqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

4-bob. Inspeksiya va uning xodimlari faoliyatini tashkil etish

14. Inspeksiyaning tashkiliy tuzilmasi Vazirlikning davlat mehnat huquq inspektorlari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektorlari, mehnat sharoitlari bo'yicha bosh davlat eksperti, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari (keyingi o'rinda hududiy bandlik boshqarmalari deb ataladi) inspeksiyalari, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlaridan iborat.

Nomzodlarni Inspeksiyaga ishga qabul qilishda ular Respublika mehnat organlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari bazasida ikki haftalik majburiy kirishish-moslashish kursidan o'tadi.

Inspeksiya xodimlari uch yilda kamida bir marta Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslarida o'qitiladi.

15. Inspeksiyaga O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

Inspeksiya boshlig'i bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori hisoblanadi.

Inspeksiya boshlig'i lavozimiga oliy ma'lumotli, mehnat yoki mehnatni muhofaza qilish tizimida kamida uch yillik ish stajiga ega shaxs tayinlanishi mumkin.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Inspeksiyasi boshlig'ining o'z vakolati doirasida qabul qilingan qarorlari faqat sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

16. Inspeksiya boshlig'i:

tegishli ravishda bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan, bir vaqtning o'zida bosh davlat mehnat huquq inspektori bo'lgan ikki nafar o'rinbosarga, Inspeksiya boshlig'i o'rinbosariga va bir vaqtning o'zida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori bo'lgan Inspeksiya boshlig'i o'rinbosariga ega bo'lishi mumkin;

o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining o'rinbosariga bo'ysunadi va unga hisob beradi.

17. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari — bosh davlat mehnat huquq inspektori lavozimiga yuridik ma'lumotga va mutaxassisligi bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga ega shaxs tayinlanishi mumkin.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari — mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori lavozimiga oliy texnik ma'lumotga va mutaxassisligi bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga ega shaxs tayinlanishi mumkin.

18. Mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy infratuzilma obyektlaridan to'sqinliksiz foydalanish uchun mehnat sharoitlarini yaratishga doir qismiga rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish vakolatlariga Inspeksiyaning quyidagi mansabdor shaxslari ega:

bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi bosh davlat mehnat inspektori hisoblangan Vazirlik Inspeksiyasining boshlig'i;

Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosari — Vazirlikning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori;

Vazirlikning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektori;

Vazirlikning mehnat sharoitlari bo'yicha bosh davlat eksperti;

hududiy inspeksiya boshlig'i — hududiy bandlik boshqarmalarining bosh davlat mehnat inspektori;

hududiy inspeksiya boshlig'ining o'rinbosari — hududiy bandlik boshqarmalarining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori;

hududiy bandlik boshqarmalarining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektorlari.

19. Mehnat va aholi bandligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish vakolatlariga Inspeksiyaning quyidagi mansabdor shaxslari ega:

bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi bosh davlat mehnat inspektori hisoblangan Vazirlik Inspeksiyasining boshlig'i;

Vazirlik Inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari — bosh davlat mehnat huquq inspektori;

Vazirlikning davlat mehnat huquq inspektorlari;

Inspeksiya boshlig'i — hududiy bandlik boshqarmalarining bosh davlat mehnat inspektori;

Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosari — hududiy bandlik boshqarmalarining bosh davlat mehnat huquq inspektori;

hududiy bandlik boshqarmalarining davlat mehnat huquq inspektori;

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlari.

Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosari — hududiy bandlik boshqarmalarining bosh davlat mehnat huquq inspektori, shuningdek, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlari zimmasiga yuriskonsult funksiyalari yuklanadi.

20. Inspeksiya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan tasdiqlanadigan ish rejalari asosida amalga oshiradi.

21. Inspeksiya boshlig'i o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun:

a) hududiy bandlik bosh boshqarmalari barcha quyi inspeksiyalarining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, uni muvofiqlashtiradi;

b) Inspeksiya hududiy bo'linmalari boshliqlarining hisobotlarini chorakda kamida bir marta eshitadi;

v) davlat mehnat inspektorlari va mehnat sharoitlari bo'yicha bosh davlat ekspertining avval berilgan ko'rsatmalari, taqdimnomalari, qarorlari va boshqa hujjatlarini ko'rib chiqadi, o'zgartiradi va bekor qiladi;

g) davlat mehnat inspektorlarining bilim saviyasini va malakasini doimiy oshirib borish bo'yicha choralar ko'radi, o'z vakolatlari doirasida Inspeksiya hududiy bo'linmalari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatma va topshiriqlar beradi;

d) O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi buyruqlari, farmoyishlari va ko'rsatmalarining tegishlicha ijrosini ta'minlaydi;

e) Inspeksiyaga yuklangan vazifa va funksiyalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi, o'ziga taqdim etilgan huquqlar va yuklangan majburiyatlar zarur darajada ijro etilishi uchun shaxsan javob beradi;

j) O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziriga:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va Inspeksiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan boshqa hujjatlar;

Inspeksiya va uning hududiy bo'linmalari tashkiliy-shtat tuzilmalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida takliflar;

hududiy bandlik boshqarmalari inspeksiyalari boshliqlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish haqida taqdimnomalar;

Inspeksiyaning yuridik ma'lumotga ega tegishli xodimlariga martaba darajalari berish to'g'risida takliflar;

Inspeksiya xodimlarini rag'batlantirish, ularni O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etish haqida takliflar;

Inspeksiya faoliyati natijalari to'g'risida har oylik hisobotlar kiritadi;

z) o'z vakolati doirasida Inspeksiya faoliyatini tashkil etish, shu jumladan ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalarni maxsus o'rganishni tashkil etish masalalari yuzasidan Inspeksiyaning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar va topshiriqlar beradi;

k) Inspeksiya xodimlarining samarali taqsimlanishini tashkil etadi, shu jumladan muayyan funksiyalarni bajaruvchi ayrim xodimlarni Inspeksiyaga yuklangan boshqa ishlarga jalb qilishi mumkin;

i) qonun hujjatlariga va ushbu Nizomga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Inspeksiya boshlig'i yo'qligida uning vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining buyrug'iga binoan uning o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

23. Inspeksiya boshlig'i davlat mehnat inspektorlarining va mehnat sharoitlari bo'yicha davlat inspektorlarining avval berilgan ko'rsatmalari, taqdimnomalari, qarorlari va boshqa hujjatlarini ko'rib chiqadi, o'zgartiradi va bekor qiladi.

Sud organlari tomonidan qaror qabul qilingandan keyin Inspeksiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qo'shimcha xulosalar, tushunchalar Inspeksiya tomonidan berilmaydi.

24. Hududiy bandlik boshqarmalari inspeksiyalari ushbu hududiy bandlik boshqarmalarining tarkibiy bo'linmalari hisoblanadi.

Hududiy bandlik boshqarmalari Inspeksiyalariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari tomonidan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Inspeksiyasining taqdimnomasiga binoan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan inspeksiyalar rahbarlari (bosh mehnat inspektorlari) rahbarlik qiladi.

Hududiy boshqarmalar bosh davlat mehnat inspektorlari lavozimlariga oliy ma'lumotga va mutaxassisligi bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga ega shaxslar tayinlanishi mumkin.

Hududiy bandlik boshqarmasi inspeksiyasining boshlig'i o'z faoliyatida hududiy bandlik boshqarmasi boshlig'iga hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Inspeksiyasiga hisobot beradi.

25. Hududiy inspeksiyalar boshliqlari tegishli hududlar doirasida:

hududiy Inspeksiyaga rahbarlik qiladi, hududiy bandlik boshqarmalarining va tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektorlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

quyi davlat mehnat inspektorlarining avval berilgan ko'rsatmalari, taqdimnomalari va qarorlari, shuningdek, boshqa hujjatlarini ko'rib chiqish va huquqbuzarliklar aniqlansa, ularni o'zgartirish huquqiga ega;

Vazirlikning, Inspeksiyaning ko'rsatmalari, hududiy bandlik boshqarmalari rahbarlarining buyruqlari, farmoyishlari va talablari tegishli ravishda ijro etilishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida hududiy Inspeksiya xodimlariga bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatmalar va topshiriqlar beradi;

hududiy Inspeksiyaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va yuqori turuvchi organlarning qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni bajaradi.

26. Hududiy inspeksiyalar o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlarining Inspeksiyasiga hisobot davridan keyingi oyning 5 sanasidan kechikmay, belgilangan tartibda yillik hisobotlar taqdim etadi.

27. Hududiy Inspeksiyalarning davlat mehnat huquq inspektorlari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektorlari O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Inspeksiyasining taqdimnomasiga binoan hududiy bandlik boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlari hududiy Inspeksiya boshlig'ining taqdimnomasiga binoan tegishli tuman (shahar) aholi

bandligiga ko'maklashish markazi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazining davlat mehnat huquq inspektori lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga ega shaxs tayinlanishi mumkin.

Tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlari bir vaqtning o'zida ushbu tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazining yuriskonsulti funksiyalarini ham bajaradi.

Tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlari o'z faoliyatida tegishli tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazining direktoriga hisob beradi.

28. Davlat mehnat huquq inspektorlari tegishli tumanlar (shaharlar) doirasida Vazirlik, hududiy inspeksiyalar ko'rsatmalarining, hududiy bandlik boshqarmalari va tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari buyruqlari, farmoyishlari hamda talablarining tegishlicha ijrosini ta'minlaydi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shaxsan javob beradi.

29. Tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlari amalga oshirilgan ishlar to'g'risida oylik hisobotlarni yuqori turuvchi organga — tegishli hududiy inspeksiyaga hisobot davridan keyingi oyning 3 sanasidan kechikmay taqdim etadi.

30. Mehnat, aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish sohasida nazorat predmetiga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi Inspeksiyaning mansabdor shaxslari O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona namunadagi guvohnomalarga ega.

Vazirlik Inspeksiyasining mansabdor shaxslariga, hududiy inspeksiyalar boshliqlari va o'rinbosarlariga xizmat guvohnomalari Vazirlik tomonidan beriladi.

Hududiy inspeksiyalarning davlat mehnat huquq inspektorlariga, mehnatni muhofaza qilish davlat texnik inspektorlariga xizmat guvohnomalari tegishli hududiy bandlik boshqarmalari tomonidan beriladi.

Tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlariga xizmat guvohnomalari tegishli hududiy bandlik boshqarmalari tomonidan beriladi.

31. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishga ruxsat berish to'g'risidagi tegishli namunadagi guvohnomalar Inspeksiyaning mansabdor shaxslariga Vazirlik tomonidan tegishli attestatsiya natijalariga ko'ra beriladi.

32. Inspeksiyaga birinchi marta ishga kirgan shaxslarga qonun hujjatlariga muvofiq uch oygacha sinov muddati belgilanadi.

Sinov muddatini o'tayotgan shaxslar quyidagi hollarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Inspeksiyadan bo'shatilishi mumkin:

agar ular qo'yilayotgan talablarga mos kelmasligi aniqlansa, Inspeksiya bo'linmalari rahbariyatining taqdimnomasiga binoan;

ishga kirgan shaxsning tashabbusi bilan (o'z xohishiga, oilaviy vaziyatiga va boshqa uzrli sabablarga ko'ra).

Ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq xodimga imzo qo'ydirgan holda e'lon qilinadi.

33. Shaxs:

agar, sudning hal qiluv qaroriga ko'ra muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan;

sudlanganligi olib tashlanmagan;

huquqni muhofaza qilish, sud va boshqa davlat organlari yoki boshqa tashkilotlardan obro'siga putur yetkazgan qilmishlar uchun bo'shatilgan bo'lsa, Inspeksiyaga ishga qabul qilinishi mumkin emas.

34. Inspeksiya xodimlari Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan tasdiqlanadigan kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilishi shart.

Inspeksiya xodimlarining kasbiy odob-axloq qoidalarini buzishi intizomiy va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xodimlar o'z ishchanlik va shaxsiy fazilatlariga, topshirilgan ish uchastkalarida erishgan natijalariga, kasbiy tayyorgarligiga ko'ra xizmat bo'yicha lavozimi oshiriladi.

35. Korrupsiya va boshqa suiiste'molliklarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik, xodimning shaxsiy va ish yuzasidan fazilatlarini, uning faoliyati samaradorligini o'rganish, shuningdek, Inspeksiya faoliyatining turli yo'nalishlarida malaka va ish tajribasiga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish maqsadida xodimlar rotatsiyasi amalga oshiriladi.

Xodimlar rotatsiyasi, qoida tariqasida, Inspeksiya boshlig'ining taqdimnomasiga binoan egallab turgan lavozimida uch yil ishlaganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Xodimlar rotatsiyasini amalga oshirish tartibi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

36. Xodimning egallab turgan lavozimiga muvofiqligini aniqlash maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan tasdiqlanadigan Attestatsiya o'tkazish to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda attestatsiya o'tkaziladi.

Attestatsiya o'tkazishda xodimning kasbga yaroqliligi va egallab turgan lavozimga muvofiqligi, shuningdek, uning keyingi faoliyati va uni navbatdagi martaba (malaka) darajasi berish bo'yicha takliflar ko'rib chiqiladi.

Xodimlar attestatsiyadan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tasdiqlangan Attestatsiya o'tkazish to'g'risidagi nizomga muvofiq Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

37. Inspeksiya o'z rasmiy blankasiga ega bo'ladi.

38. Inspeksiya xodimlari tomonidan tekshiruvlar o'tkazish, shu jumladan Inspeksiya xodimlarini nazorat qilish va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarga (tekshiruv guruhlariga) jalb qilish tegishli mehnat organi rahbarining buyrug'i asosida "Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarini tekshirish monitoringi" idoraviy elektron axborot tizimida ro'yxatga olinganda amalga oshiriladi.

Bunda Inspeksiya xodimlari bir oyda o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga tekshiruvlarga (tekshirish guruhlariga) jalb qilinadi (safarga yuboriladi).

39. Inspeksiya tomonidan qo'yilgan ma'muriy jarimalardan tushgan mablag'lar Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga yo'naltiriladi, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, shuningdek, davlat hokimiyati organlarining nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun eng kam ish o'rinlarini tashkil etishga doir qarorlarini bajarmaslik uchun belgilangan tartibda solingan jarimalarning 10 foizi miqdoridagi chegirmalar bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

Mehnat organlari rahbarlari va Inspeksiya xodimlari O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining buyrug'i asosida har oyda qo'llangan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha undirilgan jarimalar summasining 10 foizigacha bo'lgan miqdorda, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 35,15 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofotlanadi.

(39-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrda 1046-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son)

5-bob. Martaba darajalari va toifalarini berish hamda ulardan mahrum qilish

40. Oliy yuridik ma'lumotga ega Inspeksiya inspektorlari davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatining xodimlariga tenglashtiriladi va ularga martaba darajalarini berish tartibi tatbiq etiladi.

41. Inspeksiya xodimlariga martaba darajalari oliy yuridik ma'lumotga ega va attestatsiyadan ijobiy o'tgan bo'lsa, malaka va ish stajiga muvofiq egallagan lavozimi, avvalgi ish yoki xizmat joyi bo'yicha berilgan maxsus unvonlar hisobga olingan holda izchillik tartibida, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining taqdimnomasiga binoan adliya organlari xodimlariga martaba darajalarini berish tartibida beriladi.

Oliy yuridik ma'lumotga ega Inspeksiya xodimlariga quyidagi martaba darajalari beriladi:

1-darajali adliya maslahatchisi;

2-darajali adliya maslahatchisi;

3-darajali adliya maslahatchisi;

1-darajali yurist;

2-darajali yurist;

3-darajali yurist.

42. Inspeksiya xodimlariga quyidagi martaba darajalari beriladi:

1-darajali adliya maslahatchisi — Vazirlik Inspeksiyasining boshlig'iga;

2-darajali adliya maslahatchisi — Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosariga Vazirlik bosh davlat mehnat huquq inspektoriga, hududiy bandlik boshqarmalari inspeksiyalari boshliqlariga;

3-darajali adliya maslahatchisi — Vazirlikning davlat mehnat huquq inspektoriga, hududiy bandlik boshqarmalari inspeksiyalari boshliqlarining o'rinbosarlariga;

1-darajali yurist — hududiy bandlik boshqarmalarining davlat mehnat huquq inspektorlariga;

2 va 3-darajali yurist — tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektorlariga;

tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining davlat mehnat huquq inspektori lavozimiga ishga kirgan xodimlarga oliy yuridik ma'lumoti bo'lsa, 3-darajali yurist martaba darajasi beriladi.

Tegishli malaka bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lmagan xodimlarga lavozimga tayinlanganidan keyin kamida 6 oy o'tib martaba darajasi beriladi.

43. Inspeksiya xodimlariga kasbiy toifalar oliy muhandis-texnik ma'lumotga ega va attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa, malakasi va ish stajiga muvofiq izchillik tartibida beriladi.

Oliy muhandis-texnik ma'lumotga ega xodimlarga quyidagi kasbiy toifalar beriladi:

II toifali texnik inspektor;

I toifali texnik inspektor;

oliy toifali texnik inspektor.

Kasbiy toifalar:

oliy toifali texnik inspektor — Vazirlik Inspeksiyasining boshlig'iga beriladi;

I toifali texnik inspektor — Inspeksiya boshlig'i o'rinbosariga — Vazirlikning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektoriga, mehnat sharoitlari bo'yicha bosh davlat ekspertiga va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektorlariga, hududiy bandlik boshqarmalarining Inspeksiya boshlig'iga beriladi;

II toifali texnik inspektor — hududiy bandlik boshqarmalarining Inspeksiya boshlig'i o'rinbosariga — mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektoriga va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektoriga beriladi.

Inspeksiyaning boshqa xodimlariga toifa berish tartibi o'tkazilgan attestatsiya natijalariga ko'ra egallab turgan lavozimini hisobga olgan holda Vazirlik tomonidan belgilanadi.

6-bob. Inspeksiya xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi

44. Inspeksiya xodimlari:

xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'lar;

belgilangan tartibda shakllantiriladigan Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moddiy rag'batlantiriladi.

45. Inspeksiya xodimlari mehnatiga quyidagilar hisobiga haq to'lanadi:

a) quyidagilarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan:

Mehnatga haq to'lash bo'yicha yagona tarif setkasi bo'yicha tasdiqlangan razryadlarga muvofiq mehnat organlari xodimlarining lavozim maoshi;

davlat xizmatchilarining lavozim maoshiga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar va tartibda mehnatni rag'batlantirish koeffitsiyenti;

Vazirlik xodimlari uchun belgilangan miqdorda ko'p yillik xizmati uchun lavozim maoshiga har oylik qo'shimchalar;

Moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga mehnatga haq to‘lash fondining 15 foizi miqdorida xodimlar mehnatini moddiy rag‘batlantirish;
bir yilda bir marta ikki oylik ish haqi miqdorida mukofotlar;
bir yilda bir oylik ish haqi miqdoridagi moddiy yordam;
ushbu nizomga 4 va 5-ilovalarga muvofiq lavozim maoshiga martaba darajasi yoki toifasi uchun ustamalar;

b) quyidagilarni o‘z ichiga olgan mehnatni rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga:

rag‘batlantiruvchi va boshqa to‘lovlar:

faoliyat samaradorligining eng yuqori ko‘rsatkichlarini ta‘minlovchi xodimlar lavozim maoshiga ikki hissa miqdorda shaxsiy ustamalar;

Oldingi tahrirga qarang.

ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha undirilgan jarimalar summasining 10 foizigacha bo‘lgan miqdorda, biroq mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 35,15 baravaridan ko‘p bo‘lmagan miqdordagi har oylik mukofotlar;

(45-band “b” kichik bandining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrda 1046-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son)

tashabbuskorlik va xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarganlik hamda mehnatda erishgan yuksak yutuqlar uchun xodimlar faoliyatini yakka tartibda baholash asosida bir yilda bir marta ikki oylik ish haqi miqdorida mukofot;

bayram sanalarida — Mustaqillik kuniga, Konstitutsiya kuniga, 8-mart kuniga, Navro‘z, Yangi yil, “Ro‘za hayit” (Iyd-al-Fitr) va “Qurbon hayit” (Iyd-al-Adxa) bayramlariga ikki oylik lavozim maoshi miqdorida mukofot;

muhim va yubiley sanalar munosabati bilan uzoq yillik va fidokorona xizmati (ishi) uchun, shuningdek, pensiyaga chiqqanda mukofotlash;

Oldingi tahrirga qarang.

bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida ovqatlanish xarajatlarini qoplash uchun oylik to‘lovlar;

(45-band “b” kichik bandining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrda 1046-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Inspeksiya xodimlariga yo‘lkira xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha miqdordagi oylik to‘lovlar, xizmat avtotransporti biriktirilgan xodimlar bundan mustasno;

(45-band “b” kichik bandining to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrda 1046-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son)

uzoq yil xizmat qilgani uchun har oylik to‘lov.

46. Inspeksiya xodimlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham moddiy rag‘batlantirilishi mumkin.

47. Inspeksiya xodimlariga oylik shaxsiy ustamalar bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan vazirning mutasaddilik qiluvchi o‘rinbosari tavsiyasiga ko‘ra tasdiqlanadi.

48. Ish sifati yomonlashsa, topshiriqlar o‘z vaqtida bajarilmasa, mehnat va ijro intizomi buzilsa, belgilangan ustamalar bekor qilinishi yoki ularning miqdori kamaytirilishi mumkin.

49. Xodim vafot etsa, moddiy yordam (agar u xodim vafot etgan yilda unga ko‘rsatilmagan bo‘lsa) turmush o‘rtog‘iga to‘lanadi, turmush o‘rtog‘i yo‘q bo‘lsa — u bilan birga yashagan voyaga yetgan bolalariga yoki qonuniy vakillarga (vasiylar, homiylarga) yoxud voyaga yetmagan bolalarni (yoshidan qat‘i nazar bolaligidan nogironligi bo‘lgan shaxslarni) asrab olganlarga, shuningdek, xodimlar qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarga yoki ota-onalariga teng ulushlarda, agar xodimlar nikohda bo‘lmasa va bolalari bo‘lmasa, to‘lanadi.

50. Xodimning asoslantirilgan arizasi asosida yuqori turuvchi bo‘linma rahbarining roziligi bilan Mehnatni rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagi hollarda qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatilishi mumkin:

yaqin qarindoshlari vafot etganda — vafoti haqidagi guvohnomaning ko‘chirma nusxasi asosida;

zarur bo‘lgan alohida hollarda (baxtsiz hodisa, to‘y va boshqa tadbirlar, halokat, uzoq vaqt kasal bo‘lgani bois maxsus davolash va salomatlikni tiklash (shu jumladan oila a‘zosi), shuningdek oiladagi og‘ir moddiy ahvol va boshqa holatlar).

51. Xodim xarajatlarini qoplash, moddiy yordam miqdorlari va to‘lovi xodimga intizomiy jazo qo‘llanilishiga bog‘liq emas.

7-bob. Inspeksiya xodimlarini rag‘batlantirish choralari

52. Xodimlar tashabbuskorligi, xizmat majburiyatlarini vijdonan va namunali bajarganligi uchun rag‘batlantiriladi.

53. Quyidagilar rag‘batlantirish choralari hisoblanadi:

minnatdorlik;

pul mukofoti;

amal qilish muddati tamom bo‘lgunga qadar avvalgi jazoni olib tashlash;

sovg‘a yoki qimmatbaho sovg‘a;

belgilangan muddat tugagunga qadar yoki egallab turgan lavozimidan qat‘i nazar, navbatdan tashqari yoki navbatdagi martaba darajasini berish.

Xodimlar O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining hamda Davlat muassasalari va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish xodimlari respublika kasaba uyushmasi kengashining faxriy yorlig‘i bilan mukofotlanishini mumkin.

Alohida xizmatlari uchun xodimlar O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

Ish haqi, mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, ustamalar va mehnatga haq to‘lash tizimida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar rag‘batlantirish turlariga kirmaydi.

54. Inspeksiyaning intizomiy jazosi bo‘lgan xodimlariga nisbatan rag‘batlantirish choralari avval tayinlangan intizomiy jazoni olib tashlash shaklida qo‘llanishi mumkin.

55. Rag‘batlantirish to‘g‘risida tegishli buyruq chiqariladi. Buyruq rag‘batlantiriluvchi xodimga e‘lon qilinadi, zarur hollarda esa Inspeksiyaning barcha xodimlari e‘tiboriga yetkaziladi. Rag‘batlantirish to‘g‘risidagi buyruqning ko‘chirma nusxasi xodimning shaxsiy ishiga qo‘shib qo‘yiladi.

8-bob. Inspeksiya xodimlariga nisbatan intizomiy jazolar qo‘llash

56. Xodimlarga nisbatan intizomiy jazolar xizmat majburiyatlarini bajarmaganlik yoki zarur darajada bajarmaganlik yoki Inspeksiya xodimi unvoniga isnod keltiradigan xatti-harakatlari uchun qo‘llaniladi.

57. Intizomiy jazo qo‘llanganda, zarur hollarda, xizmat tekshiruvi tayinlanishi mumkin.

Intizomiy jazo xodimga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo‘llaniladi.

Xizmat tekshiruvi vaqtida xodim vaqtincha, biroq bir oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga xizmat majburiyatlarini bajarishdan, jumladan nazorat funksiyalarini bajarishdan buyruq bilan chetlatilishi mumkin.

58. Intizomiy jazo borligi xodimning lavozimini oshirishga yoki navbatdagi martaba darajasini (toifasi) berishga, shuningdek, uni rahbar lavozimlarga zaxirasiga kiritishga (uning zaxirada bo‘lishiga) to‘sqinlik qiladigan holat hisoblanadi.

59. Xodimga nisbatan qo‘llanilgan intizomiy jazo yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziriga yoki Inspeksiya boshlig‘iga shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyat kelib tushgandan keyin o‘n besh kun muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha tekshirish o‘tkazish zarur bo‘lsa, shikoyat kelib tushgan kundan boshlab bir oydan kechikmay ko‘rib chiqiladi.

Shikoyat bilan murojaat qilish intizomiy jazo ijrosini to‘xtatib turmaydi.

9-bob. Inspeksiya kadrlari zaxirasi

60. Inspeksiyada kadrlar zaxirasi shakllantiriladi.

Zarur kasbiy fazilatlarga ega shaxslarning Inspeksiyaga ishga qabul qilinishini ta'minlash, yuklangan vazifalarni professional va samarali bajarish uchun boshqaruv ko'nikmalariga va amaliy tajribaga ega xodimlarni rahbar lavozimlarga taqdim etish kadrlar zaxirasini shakllantirishning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Inspeksiya kadrlari zaxirasini shakllantirish va ular bilan ishlash kollegiallik va xolislik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

61. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda va ular bilan ishlashda quyidagilar faoliyatning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi:

ushbu Nizomda belgilangan talablarga mos keladigan shaxslarni Inspeksiyaga ishga qabul qilish;

nazariy bilimlar, amaliy va axborot-tahlil ko'nikmalarini oshirish, xodimlarning ishchanlik va professional fazilatlarini takomillashtirish, ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy yutuqlari bilan tanishtirish;

yuqori lavozimlarga eng mas'uliyatli, malakali va tayyorgarlik ko'rgan xodimlarni tanlash va ularni kadrlar zaxirasiga kiritish;

kadrlar zaxirasiga kiritilgan xodimlarni qayta tayyorlash va tarbiyalash, shuningdek, ularda boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish;

xodimlar xizmat lavozimini oshirishni tizimli rejalashtirish va tashkil etish.

Inspeksiya tizimidagi yuqori lavozimlarga, odatda, kadrlar zaxirasida turgan xodimlar tayinlanadi.

62. Inspeksiya kadrlari zaxirasi quyidagilardan iborat:

Inspeksiyaga ishga qabul qilish uchun nomzodlar zaxirasi;

hududiy bandlik boshqarmalari bosh inspektorlari va inspektorlari lavozimlarini almashtirish uchun kadrlar zaxirasi;

tarkibiy bo'linmalar boshliqlari va boshliqlari o'rinbosarlari lavozimlarini, shuningdek ularga tenglashtirilgan hududiy bandlik boshqarmalaridagi lavozimlarni, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlari davlat mehnat inspektorlarining lavozimlarini almashtirish uchun kadrlar zaxirasi.

63. Inspeksiya tizimida rahbar lavozimlarga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur ko'nikmalar va fazilatlarga ega bo'lish rahbar kadrlar zaxirasiga kiritish uchun mezon hisoblanadi.

Hududiy inspeksiyalar boshliqlari, shuningdek, Inspeksiya markaziy apparati rahbarlari lavozimlari uchun kadrlar zaxirasiga yuklangan xizmat majburiyatlarini vijdonan bajaradigan, tegishli dunyoqarashga, nazariy bilimlarga, ijobiy shaxsiy va ishchanlik fazilatlariga, turli lavozimlarda ishlash tajribasiga hamda tashkilotchilik va tahlil qilish qobiliyatiga ega, qat'iylik, prinsipial va mas'uliyatli xodimlar kiritiladi.

64. Kadrlar zaxirasiga nomzodlar Inspeksiya boshlig'i, uning o'rinbosarlari va hududiy bandlik boshqarmalari inspeksiyalari boshliqlari, mehnat organlari attestatsiya komissiyalari tomonidan kiritiladi.

65. Kadrlar zaxirasi bilan ishlar tizimli asosda mavjud vakansiyalardan qat'i nazar yuritiladi. Rahbar lavozimlarning zaxira tarkibi bir yilda kamida bir marta tuziladi.

Inspeksiya boshlig'i, Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosarlari, hududiy bandlik boshqarmalari Inspeksiyalari boshliqlari, shuningdek, Inspeksiya markaziy apparati mutaxassislari lavozimlarini almashtirish uchun kadrlar zaxirasi Vazirlik kadrlar boshqarmasi bilan kelishgan holda shakllantiriladi va O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Inspeksiyadagi qolgan lavozimlar uchun kadrlar zaxirasi tegishli ravishda bandlik hududiy bosh boshqarmalari tomonidan tasdiqlanadi.

Inspeksiyaga ishga qabul uchun nomzodlar zaxirasi ushbu Nizom talablariga javob beradigan oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari orasidan Inspeksiya va hududiy bandlik boshqarmalari tomonidan shakllantiriladi.

66. Kadrlar zaxirasini shakllantirish uchun javob beradigan Inspeksiyaning mansabdor shaxslari nomzodlarni kadrlar zaxirasiga ko'rsatish ishlarini to'g'ri tashkil etish va uni xolis shakllantirish uchun to'liq javob beradi.

Kadrlar zaxirasini shakllantirish va ular bilan ishlash ushbu Nizomda hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri buyruqlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10-bob. Yakunlovchi qoida

67. Yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning qonuniy ijro etilishiga to'sqinlik qilish maqsadida Inspeksiya yozma ko'rsatmalari, ko'rsatmalari, taqdimnomalari va boshqa hujjatlarini bajarmaslik, shuningdek, Inspeksiya faoliyatiga aralashish va har qanday shaklda uning xodimlariga ta'sir o'tkazish taqiqlanadi hamda qonunchilikda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi
to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI

DAVLAT MEHNAT INSPEKSIYASI

_____ rahbariga
(STIR, tashkilot nomi, rahbar FIO, tashkilotning yuridik manzili)

_____-son YoZMA KO'RSATMA
20__ yil "____" _____

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi nizom asosida

TALAB QILAMAN:

1. Quyidagi tadbirlarni belgilangan muddatlarda bajarish:

t/r	Aniqlangan huquqbuzarlik (modda va normativ-huquqiy hujjat nomi ko'rsatilsin)	Tadbirlar nomi	Ijro muddatlari
1.			
2.			
.....			

2. _____ manziliga 20__ yil

"____" _____ gacha bo'lgan muddatga ko'rsatmani bajarish to'g'risida yozma axborot yuborish.

3. Ko'rsatma yuzasidan u taqdim etilgan kundan boshlab 10 kun ichida yuqori turuvchi Davlat mehnat inspeksiya-siga yoki sud organiga shikoyat qilish mumkin.

4. Ko'rsatmani muddatida bajarmaslik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

((bosh) davlat mehnat inspektori/mehnat sharoitlari bo'yicha davlat eksperti) _____ (imzo) _____ (FIO)

Ko'rsatma oldi:

_____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (FIO)

20__ yil "____" _____

Ko'rsatmani bajarish natijalari: _____

((bosh) davlat mehnat inspektori/mehnat sharoitlari bo'yicha davlat eksperti) _____ (imzo) _____ (FIO)

20__ yil "____" _____

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi
to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI

DAVLAT MEHNAT INSPEKSIYASINING

to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risida

20 ___ yil " ___ " ___ dagi ___ (bayonnoma)

___-son BAYONNOMA
va uni ko'rib chiqish

Ushbu bayonnoma tuzildi

(bosh) davlat mehnat ___ inspektori (mehnat sharoitlari bo'yicha bosh ekspert) tomonidan
haqida

(tashkilot nomi)

(lavozimi, mansabdor shaxsning FIO) ___
(huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va uning mazmuni, talablari buzilgan qonun)

(guvohlar va jabrlanganlarning FIO, manzillari, moddiy zarar summasi)

Yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar mazmuni bo'yicha mansabdor shaxs tomonidan berilgan izohlar:

20 ___ yil " ___ " ___

(imzo)

(bosh) davlat ___ inspektori/mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertining qarori)

20 ___ yil " ___ " ___

(imzo)

20 ___ yil " ___ " ___

(imzo)

Tuzilgan bayonnoma bilan tanishib chiqdim:

(imzo)

20 ___ yil " ___ " ___

Izoh. Bayonnoma uchta nusxada tuziladi, bittasi tashkilot rahbariga, ikkinchisi huquqbuzarlik sodir etgan mansabdor shaxsga, uchinchisi bosh davlat mehnat inspektorida (mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertida) qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi
to'g'risidagi nizomga
3-ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI

DAVLAT MEHNAT INSPEKSIYASINING

to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarima solish haqida

20 ___ yil " ___ " ___ dagi

(qaror tuzilgan joy)

___-sonli QARORI

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 255-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi nizom asosida

(FIO, mansabdor shaxsning uy manzili) _____

(tashkilot nomi) _____

(huquqb _____

quyidagi miqdorda jarima solinsin _____

Jarima summasi quyidagi hisob raqamiga o'tkazilsin _____

bank nomi _____

MFO _____

(qarorni tuzgan shaxs mansabi)

(imzo)

Izohlar:

1. Jarima solish to'g'risidagi qaror uchta nusxada tuziladi. Birinchi nusxa jarima solingan shaxsga, ikkinchi nusxa — tashkilotga, agar jarima tashkilot rahbariga solinsa, u bo'ysunadigan yuqori turuvchi tashkilotga beriladi. Uchinchi nusxa davlat mehnat inspektorida (mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertida) qoladi.

2. Jarimaning to'lanishi Inspeksiya taqdimnomasini va (yoki) ko'rsatmasini bajarishdan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishdan ozod etmaydi.

3. Qaror ijrosi 10 ish kuni ichida amalga oshiriladi va ijro etilgan kundan boshlab 3 kun ichida uning ijrosi haqida Davlat mehnat inspeksiyasiga xabar qilinadi.

4. Jarima solish vaqtida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar, shu jumladan jarimani solish to'g'risidagi qaror yuzasidan shikoyat qilish (arz qilish), shikoyatni (arzni) ko'rib chiqish, qaror ijrosini to'xtatib turish tartibi, qaror ijrosini yuritish va boshqalar O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi
to'g'risidagi nizomga
4-ILOVA

Inspeksiyaning martaba darajalariga ega bo'lgan xodimlari lavozim maoshlariga qo'shimcha to'lovlar miqdorlari

Martaba darajasining nomi	Lavozim maoshlariga qo'shimcha to'lovlar miqdorlari (foizlarda)
3-darajali yurist	20
2-darajali yurist	24
1-darajali yurist	28
3-darajali adliya maslahatchisi	32
2-darajali adliya maslahatchisi	36
1-darajali adliya maslahatchisi	40

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi
to'g'risidagi nizomga
5-ILOVA

Inspeksiya xodimlarining kasbiy mahorati uchun lavozim maoshlariga qo'shimcha to'lovlar miqdorlari

Martaba darajasi nomi	Lavozim maoshlariga qo'shimcha haqlar miqdorlari (foizlarda)
II toifali texnik inspektor	20
I toifali texnik inspektor	30
Oliy toifali texnik inspektor	40

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qaroriga
4-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi

TUZILMASI



Boshqaruv xodimlari soni — 10 nafar.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qaroriga
4a-ILOVA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi

TUZILMASI



Boshqaruv xodimlari soni — 3 nafar.

* Ishlab chiqarish xodimlari soni — 6 nafar.

** Inspeksiya boshlig‘i — bosh davlat mehnat huquq inspektori zimmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi yuriskonsulti funksiyasi yuklanadi.

*** Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazi yuriskonsulti funksiyasi bilan.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qaroriga
4b-ILOVA

Viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalarining Davlat mehnat inspeksiyasi

TUZILMASI



Boshqaruv xodimlari soni — 3 nafar.

* Ishlab chiqarish xodimlari soni — 6 — 9 nafar.

** Inspeksiya boshlig‘i — bosh davlat mehnat huquq inspektorlari zimmasiga tegishli viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalari yuriskonsulti funksiyasi yuklanadi.

*** Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazi yuriskonsulti funksiyasi bilan.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qaroriga
5-ILOVA

Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq ishlab chiqilgan hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda (keyingi o‘rinlarda tashkilotlar deb ataladi) mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish tartibini belgilaydi, ular faoliyatini tashkil etishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish xizmati xodimlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

mehnatni muhofaza qilish — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i, ish qobiliyati saqlanishini ta‘minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi;

mehnat sharoitlari — mehnatni amalga oshirish chog‘idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig‘indisi;

kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar — zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarning ta'siri natijasida xodimning sog'lig'i shikastlanishi yoki mehnat qobiliyati yo'qotilishi yoki vafot etishi ehtimoli,

ishlab chiqarish faoliyati — mahsulot ishlab chiqarish, xomashyoni qayta ishlash, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish chog'ida amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi — O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning hududiy tuzilmalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmati (keyingi o'rinlarda Xizmat deb ataladi) — Xizmat rahbari (boshlig'i) rahbarlik qiladigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar shtatidan tashkil topgan tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmasi yoxud tashkilotda mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash va ushbu talablar bajarilishini nazorat qilish maqsadida majburiy tartibda tuziladigan yoki joriy etiladigan lavozim;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis — Xizmat xodimi yoxud tashkilotda Xizmat funksiyalarini amalga oshiruvchi shaxs;

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riq — mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari, xodimning funksional (lavozim) vazifalariga kiradigan ishni yoki ish beruvchi tomonidan topshirilgan boshqa ishni bajarishning xavfsiz uslub va usullari bilan tanishtirish jarayoni;

mehnatni muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish — xodimlarning mehnat faoliyati jarayonida ular hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha ta'lim dasturlari mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim faoliyatini tashkil etish jarayoni;

mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari — shartnoma asosida mehnatni muhofaza qilish sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar.

3. Ish beruvchi tashkilotda Xizmatni va yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etishi shart.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Xizmatni va yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etmaslik mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishi hisoblanadi.

4. Xizmat ushbu Nizomning **1-ilovasiga** muvofiq normativlar bo'yicha mehnatni muhofaza qilish xizmati, mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi, mehnatni muhofaza qilish bo'limi, mehnatni muhofaza qilish shu'basi shaklida tuzilishi yoxud bitta mehnatni muhofaza qilish muhandisi shtatidan iborat bo'lishi mumkin.

Xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirish yoki tashkilotining boshqa tarkibiy bo'linmalariga qayta taqsimlash mumkin emas.

Xizmat bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.

5. Tashkilotlarda idoraviy (tuzilmaviy, a'zolik, nazorat ostidagi) bo'linmalar sonini, faoliyat xususiyatlarini, kasbga oid xavf-xatar darajasini va xodimlar sonini hisobga olgan holda mehnatni muhofaza qilish xizmatlari (boshqarmalar, bo'limlar, sho'balari) tashkil etiladi, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi yoxud xizmat funksiyalarini bajarish maxsus tayyorgarlikka ega xodimga yuklatiladi.

Bunda tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etilishi yoki Xizmat funksiyalari maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimga yuklatilishi mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishgan holda ushbu organlar xodimlarining tasdiqlangan sonini, ular tuzilmasiga kiradigan tashkilotlar faoliyatining xususiyatlarini, kasbga oid xavf-xatarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

6. Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirayotgan, xodimlar soni ellik kishidan kam bo'lgan va kasbga oid xavf-xatarning 1 — 4 (ichiga olib) darajalariga kiradigan tashkilotlarda ish beruvchining qaroriga muvofiq mehnatni muhofaza qilish xizmatlari tashkil etiladi yoki tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

7. Yuridik shaxsni tashkil etmagan xolda va qonunchilikka muvofiq xodimlarni yollab o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek fermer xo'jaliklarida (qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish mavjud bo'lmagan shartlarda) ish beruvchining qaroriga muvofiq mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimlari joriy

etiladi yoki Xizmatning funksiyalarini bajarish maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimga yuklatiladi.

8. Xizmat funksiyalarini amalga oshirish uchun mazkur Nizomning 6 va 7-bandlarida belgilangan hollarda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari jalb qilinishi mumkin.

9. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan tashkilotda Xizmatdan tashqari yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkil etiladi yoki yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Tashkilotlarda yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil qilish va faoliyatini amalga oshirish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

10. Xizmat tashkilotning boshqa bo'linmalari, kasaba uyushmalari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari, yuqori turuvchi tashkilotning Xizmati (agar u mavjud bo'lsa), mehnatni muhofaza qilishga oid talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlari va jamoatchilik nazorati organlari bilan tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadigan yillik rejalar asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Yangi tuzilayotgan tashkilotlarda xizmatlar mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni dastlabki tarzda tashkil etadi va mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi tizimini joriy etadi.

Bo'limlar, sexlar, byuro, xizmatlar va boshqa mustaqil bo'linmalar tashkilotdagi tarkibiy tuzilmalar deb hisoblanadi.

11. Xizmat o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. Xizmat vazifalari va funksiyalari

12. Quyidagilar Xizmatning asosiy vazifalari hisoblandi:

xodimlar tomonidan mehnatni muhofaza qilish talablari bajarilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;

mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, jamoa shartnoma va bitimlar, tashkilotning boshqa lokal normativ hujjatlariga xodimlar rioya etishini nazorat qilish;

ishlab chiqarishda jarohat olishning, kasbga kasalligiga chalinishning va ishlab chiqarish omillari bilan izohlanadigan kasalliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini, shuningdek, mehnat sharoitlarini yaxshilash ishlarini tashkil etish;

tashkilot rahbari va xodimlarini mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha xabardor qilish va maslahat berish, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajriba va ilmiy ishlanmalarni joriy etish, mehnatni muhofaza qilish masalalarini targ'ib qilish;

mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha tashkilot xodimlarini o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshirish.

13. Xizmat o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) xodimlar tomonidan mehnatni muhofaza qilish talablari bajarilishini ta'minlash ishlarini tashkil etish sohasida:

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar, kasaba uyushmalari yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari ishtirokida tegishli bo'linmalarning vakillari bilan hamkorlikda binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, mashinalar va mexanizmlar, moslamalar, xodimlarni jamoaviy va yakka tartibda himoya qilish vositalarini, sanitariya-texnik qurilmalar holatini, ventilatsiya tizimlari mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq ishlashini sinaydi, tekshiradi;

tashkilotlarda sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratishga doir ishlar shakllari va usullarini takomillashtirishni ta'minlaydi;

tashkilotning tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi, shuningdek, mazkur tadbirlar joriy etilishini tashkil etadi;

tegishli muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan mehnat xavfsizligi standartlari loyihalarini, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalarini ko'rib chiqadi va kelishadi;

2) mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlar, mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, jamoa shartnoma va bitimlar, tashkilotning boshqa lokal normativ hujjatlariga xodimlar rioya etishini nazorat qilish sohasida:

qurilishi bitkazilgan yoki rekonstruksiya qilingan ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektlarni foydalanishga topshirish uchun qabul qilish bo'yicha komissiyalarning ishida, shuningdek, ta'mirdan chiqqan qurilmalar, agregatlar, dastgohlar va boshqa uskunalarni qabul qilish, mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilganini tekshirish bo'yicha komissiyalar ishlarida ishtirok etadi;

ish joylari mehnat shartlari bo'yicha attestatsiyadan o'z vaqtida o'tkazilishini nazorat qiladi; xodimlarni yakka tartibda himoya qilish vositalari to'g'ri qo'llanilishini tekshiradi;

asbob-uskunalar, mashinalar va mexanizmlar tegishli xizmatlar tomonidan o'z vaqtida lozim darajada tekshirilishini va texnik ko'rikdan o'tkazilishini nazorat qiladi;

xodimlarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'z vaqtida o'qitilishi, ularning bilimlari tekshirilishini va barcha turdagi yo'riqnomalardan o'tkazilishiga rioya etilishini nazorat qiladi;

tashkilotning tarkibiy bo'linmalarida mehnatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni bajarish uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qiladi;

maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalarini saqlash, berish, tozalash, kimyoviy tozalash, quritish, yog'sizlantirish va ta'mirlashni tashkil etishni nazorat qiladi;

jamoa shartnomasining "Mehnatni muhofaza qilish" bo'limidagi tadbirlari, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kelishuvlar, baxtsiz hodisalarni keltirib chiqargan sabablarni (N-1 shakli hujjatidan) bartaraf etilishini, mehnatni muhofaza qilishga oid talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlari ko'rsatmalari, sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga doir boshqa tadbirlar bajarilishini qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qiladi;

qonun hujjatlarda belgilangan muddatlarga muvofiq hujjatlarni (N-1 shaklidagi hujjatlar va ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarni tekshirishga doir boshqa hujjatlarni, ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish materiallarini va hokazolarni) saqlash tashkil etilishini nazorat qiladi;

tashkilotda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ichki audit o'tkazadi;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va tashkilotdagi kasb kasalliklar tekshirilishini va hisobga olinishini nazorat qilish;

o'z mehnat majburiyatlarini bajarayotganda olgan jarohati uchun xodimga zarar o'z vaqtida qoplanishini nazorat qiladi;

tashkilotlar va ularning tarkibiy bo'linmalarida normativ-huquqiy hujjatlar va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etish bo'yicha va boshqa nazorat funksiyalarini amalga oshiradi;

3) ishlab chiqarishda jarohat olishning, kasb kasalligiga va ishlab chiqarishda orttiriladigan kasalliklarga chalinishning oldini olish va mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha profilaktik ishlarni o'tkazish va takomillashtirish sohasida:

ishlab chiqarishda jarohat olish, kasb kasalligiga va ishlab chiqarishda orttiriladigan boshqa kasalliklarga chalinish holatini tahlil qiladi va sabablarini aniqlaydi;

xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari parametrlari o'lchanishini tashkil etish va o'tkazishda, asbob-uskunalar, moslamalarning jarohat yetkazish xavfini baholashda bo'linmalarga ko'maklashadi;

ish joylaridagi mehnat sharoitlari holati, kasb kasalliklariga chalinish sabablari va muddatlari, shuningdek, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillaridan himoya qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida xodimlarni ish beruvchi nomidan xabardor qiladi;

bo'linmalar rahbarlari va tashkilotning boshqa xizmatlari bilan birgalikda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning va kasb kasalliklariga chalinishning oldini olish, mehnat sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqadi hamda ularning normativ-huquqiy hujjatlar va mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ

hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlaydi, shuningdek, rejalashtirilgan tadbirlarni bajarish bo'yicha tashkiliy yordam ko'rsatadi;

bo'linmalar va tegishli xizmatlar rahbarlari bilan birgalikda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqilishi kerak bo'lgan kasblar va ishlar turlarining ro'yxatini tuzadi; tashkilotning ichki auditini o'tkazish tartibini ishlab chiqadi;

tarkibiy bo'linmalarining sanitariya-texnik holatini pasportlashtirishdan o'tkazish, mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, mehnatni muhofaza qilish kompleks rejalarini va sanitariya-sog'lomlashtirish tadbirlarini ishlab chiqish va bajarish ishlarini tashkil etadi, shuningdek, ish beruvchi va kasaba uyushmalari yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari o'rtasida mehnatni muhofaza qilishga doir bitimlar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish holati monitoringini olib boradi va u bo'yicha belgilangan shakllar va tegishli muddatlarda hisobot tuzadi;

ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligiga chalinishi natijasida xodimlarning salomatligiga yetkazilgan zararni to'lanishi uchun hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

tashkilotdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirishda ishtirok etadi;

4) tashkilot rahbari va xodimlarini mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha xabardor qilish va maslahat berish, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajriba va ilmiy ishlanmalarni joriy etish, mehnatni muhofaza qilish masalalarini targ'ib qilish sohasida:

xavfli ishlab chiqarish omillaridan himoya qilishning mukammalroq usullari, qurilmalari va vositalarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va tashkilot rahbariyatiga taqdim etadi;

mehnat xavfsizligi standartlari va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlanmalarni joriy etishga doir ishlarda ishtirok etadi;

xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish yo'riqnomalarini, mehnat xavfsizligi standartlari tizimini ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqishda tashkilot bo'linmalari rahbarlariga uslubiy yordam ko'rsatadi;

5) mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha tashkilot xodimlarini o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshirish sohasida:

tashkilot xodimlarini mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqadi;

mehnatni muhofaza qilish sohasida malaka oshirish uchun yuboriladigan lavozimlar ro'yxatlarini shakllantiradi;

barcha ishga yangi qabul qilinayotgan, xizmat safariga kelgan xodimlarni va o'qish yoki amaliyot uchun kelgan talabalarni mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kirish yo'riqnomalaridan o'tkazadi;

attestatsiya o'tkazuvchi komissiyaning hamda muhandis-texnik xodimlarning bilimini, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalarini, xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalarini bilishini tekshiruvchi komissiyaning ishida ishtirok etadi;

mehnatni muhofaza qilish ishlariga rahbarlik qiladi, mehnatni muhofaza qilish masalalari targ'ib qilinishini va keng yoritilishini tashkil etadi;

tashkilot tarkibiy bo'linmalarining qoidalar, normalar, plakatlar va mehnatni muhofaza qilishga doir boshqa qo'llanmalar bilan ta'minlanishini tashkil etadi, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha axborot stendlarini jihozlashda uslubiy yordam ko'rsatadi;

tashkilotlar xodimlarini mehnatni muhofaza qilish bo'yicha amalga kiritilayotgan yangi qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida xabardor qiladi.

14. Xizmat tashkilotning o'ziga xos faoliyatiga va tashkilot rahbariyati topshiriqlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

15. Xizmat funksiyalari mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan shartnoma asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

16. Xizmatga ushbu Nizomda nazarda tutilmagan funksiyalarni yuklash taqiqlanadi.

3-bob. Xizmatning huquqlari va majburiyatlari

17. Xizmat xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

tashkilotning ishlab chiqarish, xizmat va maishiy binolarini moneliksiz borib ko'rish, o'z vakolati doirasida mehnatni muhofaza qilish masalalariga doir hujjatlarni o'rganish;

tashkilotning barcha tarkibiy bo'linmalarida mehnat sharoitlarini va mehnat muhofaza qilinishini tekshirish hamda bo'linmalar rahbarlariga, tashkilotning boshqa mansabdor shaxslariga tekshiruvlarda aniqlangan mehnatni muhofaza qilish talablari buzilishini bartaraf etish to'g'risida bajarish majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, ularning bajarilishini nazorat qilish;

bo'linmalar rahbarlaridan bunday turdagi ishni bajarishga ruxsati bo'lmagan, dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tmagan, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma berilmagan, o'z ishida taqdim etilgan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanmaydigan, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzadigan shaxslarni ishdan chetlatishni talab qilish;

xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf soladigan yoki avariya olib kelishi mumkin bo'lgan mehnatni muhofaza qilish talablari buzilgan hollarda mashinalar, asbob-uskunalar va moslamalardan foydalanishni taqiqlash (to'xtatib turish), sexlarda, uchastkalarda, ish joylarida ishlab chiqarish jarayonini to'xtatish, ish beruvchini bu haqda ogohlantirish. Bunda mashinalardan, asbob-uskunalaridan qaytadan foydalanishga va ishlab chiqarishni qaytadan boshlashga faqat tashkilotning rahbari yoki bosh muhandisi Xizmatning xulosasi asosida ruxsat berishi mumkin;

tashkilot rahbariyati bilan kelishgan holda boshqa tarkibiy bo'linmalarining tegishli mutaxassislarini tashkilotda mehnatni muhofaza qilish holatini tekshirishga jalb qilish;

tashkilot tarkibiy bo'linmalarining rahbarlaridan mehnatni muhofaza qilish masalalariga doir zarur ma'lumot, axborot va materiallarni so'rash va olish, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalarini buzgan, xavfsiz mehnat usullarini qo'llashga doir yo'riqnomalarga rioya qilmagan shaxslardan yozma tushuntirishlar talab qilish;

sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish bo'yicha faol ish olib borgan ayrim xodimlarni rag'batlantirish, mehnatni muhofaza qilish qoidalari va normalari, xavfsiz mehnat usullariga doir yo'riqnomalar buzilishida aybdor bo'lgan shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish to'g'risida tashkilot rahbariyatiga takliflar kiritish;

tashkilotning tarkibiy bo'linmalaridan ma'lumotnomalar, ma'lumotlar, hisobotlar va o'z faoliyatini amalga oshirish hamda nazorat funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa axborotlar taqdim etilishini talab qilish;

mehnatni muhofaza qilishni texnik tartibga solish sohasidagi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar talablari buzilishi yuzasidan mehnatni muhofaza qilish sohasida maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish.

Xizmat qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Xizmat xodimlari:

ushbu Nizom va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq o'z zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarni zarur tarzda va samarali bajarishi;

tashkilotda va uning tuzilmasiga kiradigan bo'linmalarda mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida rahbariyatga darhol xabar berishi;

tashkilotda Xizmat faoliyatiga doir hujjatlar va boshqa ma'lumotlarni mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etishi;

belgilangan tartibda va muddatlarda malaka oshirishi va attestatsiyadan o'tishi shart.

Xizmat qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4-bob. Tashkilot rahbarining va Xizmat xodimlarining faoliyatni tashkil etish bo'yicha majburiyatlari

19. Ish beruvchi (tashkilot rahbari):

mazkur Nizomda belgilangan hollarda va tartibda Xizmatni tashkil etishi;

Xizmat xodimlari o'z vakolatlari va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratib berishi;

Xizmat xodimlarining ish joylarini alohida xonada tashkil etishi, ish xususiyatlarini hisobga olib, zamonaviy idora texnikasi, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini tezkor nazorat qiluvchi zarur asboblari, texnik aloqa vositalari bilan ta'minlashi va tashrif buyuruvchilarni qabul qilish uchun jihozlashi;

Xizmat funksiyalarini amalga oshirish uchun (o'qitish, yo'l-yo'riq berish, seminarlar, ma'ruzalar, ko'rgazmalar o'tkazish) mehnatni muhofaza qilishga oid zarur normativ huquqiy adabiyotlar va ma'lumotnomalar bilan jihozlangan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xonasini tashkil etishi;

Xizmat xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish talablari yuzasidan muntazam malaka oshirishini va bilimlarini tekshirishni tashkil etishi;

qonun hujjatlari va mazkur Nizom talablariga muvofiq xodimlar qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishini ta'minlashi, o'qish davrida ularning o'rtacha ish haqini saqlab qolishi;

mehnatni muhofaza qilish sohasida xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga jamoa kelishuvi, jamoa shartnomasi va boshqa lokal normativ hujjatda belgilanadigan miqdorda zarur mablag'larni ajratishi majburdir.

Xizmat xodimlari mehnatni muhofaza qilish sohasida xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida chiqimdor bo'lmaydilar.

20. Xizmatning boshlig'i:

Xizmatga rahbarlik qiladi, xizmatning ishini rejalashtiradi va tashkil etadi;

Xizmat xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqadi;

Xizmatga yuklangan vazifalar va funksiyalarining samarali hamda sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgardir, hisobot taqdim etilishi uchun javob beradi;

tashkilotda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tarkibiy bo'linmalarining ishlarni muvofiqlashtiradi;

Xizmat vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan taqdim etilgan hujjatlar, xatlar, takliflar, arizalarni o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

Xizmatga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish yoki o'z vazifalarini lozim darajada bajarmagan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risida ish beruvchiga takliflar taqdim etadi;

mehnatni muhofaza qilishga oid talablariga rioya etilishi yuzasidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi organlariga mehnatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha ma'lumot, axborot, materiallar taqdim etilishini ta'minlaydi.

5-bob. Xizmat rahbariga va mutaxassislariga qo'yiladigan talablar

21. Xizmat tuzilmasi va Xizmat xodimlarining soni tashkilotda ishlayotgan xodimlarning soni, mehnat sharoitlari xususiyati, kasbga oid xavf-xatar sinfi va boshqa omillarga qarab tashkilot rahbari tomonidan mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq belgilanishi lozim.

22. Xizmat boshlig'i lavozimiga oliy muhandislik-texnik ma'lumotga, ixtisosligi bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

Respublika darajasidagi tashkilotlarning Xizmat boshlig'i (mehnatni muhofaza qilish bo'yicha muhandislar), mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislari O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga hisobot beradi.

23. Xizmat boshlig'i lavozimiga (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) oliy muhandislik-texnik ma'lumotga, ixtisosligi bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis malakasi sertifikatiga ega shaxs tayinlanadi.

Xizmat boshlig'i, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislari, hududiy darajadagi tashkilotning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha muhandisi hududiy bandlik organlari bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, hududiy bandlik boshqarmasiga hisobot beradi.

24. Xizmat mutaxassislari yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimiga (lavozim joriy etilganda) ish stajidan qat'i nazar oliy muhandislik-texnik ma'lumotga ega shaxslar tayinlanadi.

Hududiy darajadagi Xizmatning mutaxassislari hududiy bandlik organlari bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

25. Xizmat xodimi lavozimiga qabul qilishda nomzod bilan suhbat o'tkaziladi.

Nomzod bilan suhbat tashkilotning bevosita rahbari tomonidan imzolangan taqdimnoma bo'lsa, o'n ish kuni mobaynida o'tkaziladi.

26. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida suhbat ushbu sohaga javobgar vazir o'rinbosari, davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari — mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori, mehnat sharoitlari bo'yicha bosh davlat eksperti tomonidan o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida vazir, vazirning birinchi o'rinbosari, davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari — mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori tomonidan o'tkaziladi.

Viloyatlar va Toshkent shahar bandlik bosh boshqarmalarida suhbat boshqarma boshlig'i, boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari, davlat mehnat inspeksiyasi boshlig'ining o'rinbosari — mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bosh davlat texnik inspektori tomonidan o'tkaziladi.

27. Suhbat yakunlari bo'yicha mas'ul organ uch ish kuni mobaynida nomzod suhbatdan o'tgani yoki o'ta olmagan haqida tashkilotni xabardor qiladi.

28. Ushbu Nizomning 22 — 24-bandlarida ko'rsatilgan shaxslar lavozimga tayinlansa, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Respublika mehnat organlari malakasini oshirish kurslarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnatni muhofaza qilish sohasida qayta tayyorlanishi yoki malakasi oshirilishi kerak.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va tashkilotlarning Xizmati xodimlari uch yilda kamida bir marta O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Respublika mehnat organlari malakasini oshirish kurslarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda malaka oshiradi.

29. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlarning Xizmati xodimi sifatidagi ish staji boshqa organlarga yoki tashkilotlarga ishga o'tganida professionallik toifasi uchun ustamalar va uzoq muddat uzluksiz xizmati uchun qo'shimcha haqlar yozish va to'lash uchun ish stajiga yoziladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

30. Xizmat xodimlari o'z vazifalari va funksiyalarini bajarmaganligi yoki zarur tarzda bajarmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

31. Xizmat mutaxassislari barchaning manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamoat birlashmalarini tashkil etishi mumkin.

32. Ushbu Nizom talablariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi va uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

33. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi va uning hududiy organlari o'z vakolati doirasida mehnatni muhofaza qilish xizmatlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan ushbu Nizom va xizmatlarning faoliyatini tartibga soladigan boshqa qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etishga qaratilgan choralar ko'radi.

Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatlari soni normativlari

T/r	Mehnatni muhofaza qilish xizmati nomlari	Belgilangan shtat birligi
1.	Mehnatni muhofaza qilish xizmati	9 va undan ortiq kishi*
2.	Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi	6 — 8

3.	Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi	4 yoki 5
4.	Mehnatni muhofaza qilish shu‘basi	3
5.	Mehnatni muhofaza qilish muhandisi	1

* Xodimlar sonining har bir qo‘shimcha 50 ta shtat birligi uchun 1 nafar mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis qo‘shimcha kiritiladi.

Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmatini yaratish va faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi
nizomga
2-ILOVA

Tashkilot mehnatni muhofaza qilish xizmatining tavsiya etilgan tuzilmasi

T/r	Tashkilot xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha soni	kasbiy tavakkalchilik darajalari bo‘yicha*			
		1-daraja	2-darajadan 10-darajagacha	10-darajadan 15-darajagacha	15-darajadan 20-darajagacha (shu jumladan, 20-daraja)
1.	Xodimlar soni 50 kishidan kam	Tashkilot rahbarlaridan biriga yuklanadi			Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi
2.	Xodimlar soni 51 kishidan 100 kishigacha	Tashkilot rahbarlaridan biriga yuklanadi		Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi	Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi tashkil etiladi
3.	Xodimlar soni 101 kishidan 500 kishigacha	Tashkilot rahbarlaridan biriga yuklanadi	Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi	Mehnatni muhofaza qilish shu‘basi tuziladi	Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi tashkil etiladi
4.	Xodimlar soni 501 kishi va undan ortiq	Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi	Mehnatni muhofaza qilish shu‘basi tuziladi	Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi tashkil etiladi	Mehnatni muhofaza qilish bo‘limlari va shu‘balaridan iborat Mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi.

* Kasbiy xavf darajalari Vazirlar Mahkamasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2009-yil 24-iyundagi qaroriga muvofiq belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-dekabrda 1066-son qaroriga
6-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. Vazirlar Mahkamasining “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1997-y., 6-son, 21-modda):

a) qarorning nomi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”;

1-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin”;

b) ilovada:

ilovaning nomi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida nizom”;

III bo‘limda:

3-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“3. Guruhli, o‘lim bilan tugagan va oqibati og‘ir baxtsiz hodisani Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyat (Toshkent shahar) bandlik bosh boshqarmasi buyrug‘iga asosan quyidagi tarkibdagi komissiya maxsus tekshiradi”;

to‘rtinchi xatboshidagi “Davlat mehnat texnika nazorati” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi” so‘zlari “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘qqizinchi xatboshidagi “Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi” so‘zlari “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

8-bandning uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“maxsus tekshirishning barcha materiallari nusxalarini viloyat (Toshkent shahar) bandlik bosh boshqarmasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga, shuningdek, tegishli vazirlikka (xo‘jalik boshqaruvi organi), korxonaga va uning yuqori turuvchi xo‘jalik organiga, jabrlangan xodimni yuborgan tashkilotga yuboradi”;

IV bo‘limning 6-bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“6. Ikki va undan ziyod kishi halok bo‘lgan baxtsiz hodisa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hay‘atida, viloyat (Toshkent shahar) bandlik bosh boshqarmasi kengashida, O‘zbekiston Respublikasi “Sanoatgeokontekstnazorat” yoki “O‘zdavenergonazorat” davlat inspeksiyasi hay‘atida, baxtsiz hodisa shu organ nazorati ostidagi korxonada (obyekt)da yuz bergan bo‘lsa, bosh davlat mehnat texnik inspektori ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hay‘ati, viloyat (Toshkent shahar) bandlik bosh boshqarmasi kengashi chiqargan qaror bajarilishi shartdir”.

2. Vazirlar Mahkamasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlar faoliyatini to‘xtatib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2011-yil 5-yanvardagi 1-son qarorining 1-bandidan (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 1-son, 1-modda) “Aholini ish bilan ta‘minlash va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo‘llash, shuningdek” so‘zlari chiqarib tashlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-apreldagi 258-sonli qaroriga asosan 2021-yil 1-iyuldan o‘z kuchini yo‘qotadi — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 09/21/258/0400-son)

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2014-yil 15-sentabrdagi 263-son qarorida (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2014-y., 9-son, 100-modda):

a) 1-ilovada:

54-bandning **birinchi xatboshidagi** “Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi bo‘yicha davlat inspeksiya” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-ilovadagi “Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi bo‘yicha davlat inspeksiya boshlig‘i” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya boshlig‘i” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 2-ilovaning 7-bandi **ikkinchi xatboshidagi** “Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi bo‘yicha davlat inspeksiya hamda Davlat mehnat huquq inspeksiya” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” 2017-yil 27-apreldagi 246-son **qarorida** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 4-son, 55-modda):

a) 2-ilovada:

33-banddagi “mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

36-bandning **ikkinchi xatboshidagi** “mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi davlat inspeksiya” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 4-ilovada:

2-bandning **uchinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“mehnat sharoitlarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish organi — O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiya hamda O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hududiy organlarining davlat mehnat inspeksiya”;

Nizomga 2 va **3-ilovalardagi** “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi bo‘yicha davlat inspeksiya boshlig‘i (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hududiy organlarining mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari ekspertizasi inspeksiya boshlig‘i)” so‘zlari “Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Davlat mehnat inspeksiya boshlig‘i (Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hududiy organlarining Davlat mehnat inspeksiya boshlig‘i)” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 5-oktabrdagi 799-son **qarorida** (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 40-son, 1059-modda):

5-bandida “Olmazor tumani, Qamarniso ko‘chasi, 37-uy” so‘zlari “Sergeli tumani, Lutfikor ko‘chasi, 33-uy” so‘zlari bilan almashtirilsin;

4-ilova 14-bandning **oltinchi xatboshidagi** “Mehnat davlat huquq inspeksiya” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining “Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 15-yanvardagi 27-son qaroriga ilovaning izohi **ikkinchi xatboshidagi** “muddati” so‘zi “muddati, summasiga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 10-maydagi 349-son **qarorida**:

5-band “b” kichik bandning **uchinchi xatboshidagi** “Davlat mehnat huquq inspeksiya” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya” so‘zlari bilan almashtirilsin;

7-bandi **uchinchi xatboshidagi** “Davlat mehnat huquq inspeksiya” so‘zlari “Davlat mehnat inspeksiya” so‘zlari bilan almashtirilsin.

Oldingi tahrirga qarag.

(9-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-sonli qaroriga asosan 2022-yil 1-martdan o‘z kuchini yo‘qotadi — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.02.2022-y., 09/22/80/0154-son)

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “Aholini ish bilan ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 1993-yil 24-iyundagi 310-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 37-son, 990-modda).

Oldingi tahrirga qarang.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi 87-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.02.2021-y., 09/21/87/0134-son)

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 1998-yil 23-iyuldagi 310-son qaroriga ilovaning 5-bandi (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1998-y., 7-son, 27-modda).

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2007-yil 6-apreldagi PQ-616-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2007-yil 8-maydagi 95-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2007-y., 19-20-son, 195-modda) 2-ilovaning 1-bandi.

5. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining mehnat, aholini ish bilan ta’minlash va mehnatni muhofaza qilishga doir qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2010-yil 19-fevraldagi 29-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2010-y., 2-son, 10-modda).

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009-yil 30-dekabrda PQ-1251-son qarori hamda “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009-yil 30-dekabrda PQ-1252-son qarori)” 2010-yil 24-martda 52-son qaroriga 1-ilovaning 4-bandi (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2010-y., 3-son, 12-modda).

7. Vazirlar Mahkamasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun tashkilotlar faoliyatini to‘xtatib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2011-yil 5-yanvarda 1-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 37-son, 990-modda) 2-ilovaning 3-bandi.

8. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining hojatmand qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 22-fevralda PF-4782-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 24-fevralda PQ-2498-son qarori)” 2017-yil 13-martda 130-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 15-son, 249-modda, 25-son, 539-modda, 37-son, 997-modda) 1-ilovaning 32-bandi.

9. Vazirlar Mahkamasining “Mehnat organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 10-iyulda 482-son qarorining 1-bandi (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 7-son, 139-modda), shuningdek, unga 1 va 2-ilovalar.

10. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 24-mayda PF-5052-son Farmoni va

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son qarori)” 2017-yil 8-sentabrdagi 703-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 37-son, 990-modda) ilovaning [27-bandi](#).

11. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo‘yicha respublika reabilitatsiya Markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 24-oktabrdagi PQ-3352-son qarori)” 2018-yil 22-yanvardagi 39-son qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2018-y., 1-son, 18-modda) ilovaning [2-bandi](#).

12. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-son qarori)” 2018-yil 13-avgustdagi 652-son qaroriga ilovaning [5-bandi](#).

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.12.2018-y., 09/18/1066/2428-son, 09.07.2019-y., 07/19/566/3396-son, 07.09.2019-y., 09/19/743/3710-son, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son; 17.04.2020-y., 09/20/234/0453-son; 03.12.2020-y., 09/20/764/1591-son; 14.12.2020-y., 09/20/777/1620-son; 24.12.2020-y., 09/20/806/1662-son; 30.01.2021-y., 09/21/44/0072-son, 22.02.2021-y., 09/21/87/0134-son, 05.04.2021-y., 09/21/182/0282-son, 06.04.2021-y., 09/21/183/0283-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 09/21/258/0400-son, 24.06.2021-y., 09/21/391/0590-son, 26.10.2021-y., 09/21/656/0996-son; 22.02.2022-y., 09/22/80/0154-son, 02.03.2022-y., 07/22/149/0186-son, 19.04.2022-y., 09/22/195/0319-son)